

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

«Tasdiqlayman»
Iqtisodiyot va boshqaruv
fakulteti dekani, dotsent
_____ F.Axrorov
«____» _____ 2014 yil

5610100-«Fermer xo'jaligini boshqarish va yuritish» ta'lim yo'nalishi bo'yicha

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “Fermer xo'jaliklarida mehnat haqi hisobi va mehnat unumdorligi tahlilini takomillashtirish(Kattaqo'rg'on tuman fermer xo'jaliklari misolida)”

Bajaruvchi: «Fermer xo'jaligini
boshqarish va yuritish» yo'nalishi,
IV bosqich 406-guruh talabasi

Nazarov Anvar

Ilmiy rahbar, i.f.n., dotsent

T.Raxmonov

Ish kafedrada muhokama
qilinib, №____ bayonnoma
bilan himoyaga ruxsat etildi.

Kafedra mudiri, i.f.d.,
dotsent _____ A.I.Alikulov
«____» _____ 2014 yil

Samarqand – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1. MAVZUNI NAZARIY ASOSLASH VA ADABIYOTLAR SHARHI.....	6
2. FERMER XO'JALIKLARIDA RESURLAR SALOHİYATI VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	17
2.1. Yer-suv resurslari va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	17
2.2. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	23
2.3. Moddiy resurslar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	27
3. FERMER XO'JALIKLARIDA MEHNATGA HAQ TO'LASH HISOBİ VA MEHNAT UNUMDORLIGI TAHLILINI TASHKIL ETISH.....	31
3.1. Mehnatga haq to'lashning shakllari, fondi va uning tarkibi.	31
3.2. Mehnat haqini dastlabki, analitik va sintetik hisobini tashkil etish.....	37
3.3. Mehnatga haq to'lash fondidan foydalanishni va mehnat unumdorligini tahlil qilishni tashkil etish.....	43
4. FERMER XO'JALIKLARIDA MEHNATGA HAQ TO'LASH VA MEHNAT UNUMDORLIGI TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH.....	50
4.1. Fermer xo'jaliklarida mehnat haqi va mehnat haqi fondi tahlil qilishni takomillashtirish.....	50
4.2. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish usullari...	55
5. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	61
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	65
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	68

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda tanlab olingan o'z iqtisodiy taraqqiyot modelimizga asosan amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar o'z samarasini berib, makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanib, iqtisodiyotning borqaror rivojlanishiga erishilmoqda. 2013 yilda 2012 yilga nisbatan «Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi»¹.

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarining yuqori sur'atlar bilan iqtisodiy o'sishga erishishda, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish jarayoni bilan birga mahalliy va xorijiy investisiyalarni jalb qilish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, korxonalarda moliyaviy investisiyalardan samarali foydalanish bo'yicha keng kamrovli chora-tadbirlarni amalga oshirilayotganligidir. Shubilan birga, ishlab chiqarishni va umuman, mamlakatimizni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashda, barqaror taraqqiyotni ta'minlashda investisiyalarning o'rni kattadir. “2013-yilda Investisiya dasturini amalga oshirish doirasida mamlakatimizda 13 milliard dollar qiymatidagi kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi, bu 2012-yilga nisbatan 11,3 foizga ko'pdir. O'zlashtirilgan kapital qo'yilmalar umumiy hajmining deyarli yarmini, ya'ni 47 foizini xususiy investisiyalar – korxonalar va aholining shaxsiy mablag'lari tashkil etgani alohida e'tiborga loyiqdir.

Umuman olganda, mamlakatimiz iqtisodiyotiga investisiya kiritish hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 23 foizdan iborat bo'ldi”².

Mehnat bilan band aholi daromadlarining asosiy qismi tadbirkorlik faoliyatidan olinishi bilan birga, ularning mehnat haqlari ham oshirilib borilmoqda. «Barchamizga ma'lumki, aholi ish haqi va daromadlarining o'sish sur'ati eng

¹. Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. – T.: O'zbekiston, 2014. – B. 3.

². O'sha joyda.-B.11.

muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi... Biz har uch yilda ish haqini 2 - 2,5 barobar oshirishni o'z oldimizga muhim strategik vazifa qilib qo'yganmiz. Shu tariqa, aholining xarid qobiliyatini hisobga olgan holda, biz yaqin yillar ichida xalq farovonligi va daromadlarini ta'minlash bo'yicha yuksak marralarga erishayotgan mamlakatlar darajasiga ko'tarilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz»³. Fermer xo'jaliklarida mehnat bilan band aholining daromadlarini oshirish fermer xo'jaliklarining daromadiga bog'liqligini hamda bevosita mahsulot tannarxiga ta'sir etishini hisobga oladigan bo'lsak, fermer xo'jaliklarining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, mahsulotlarning raqobatbardoshligi ta'minlanishini hisobga olgan holda oshirish lozim bo'ladi. Natijada, mehnat haqini fermer xo'jaliklari manfaatlariga va xodimlarning moddiy manfaatdorligiga mos ravishda oshirib borish muammosi dolzarblik kasb etadi.

Ushbu muammolarni hal etishda fermer xo'jaliklarida mehnat haqi va mehnat unumdorligi tahlilini to'g'ri yo'lga qo'yish va amalga oshirish, tahlil ma'lumotlari bilan boshqaruvchilarni o'z vaqtida ta'minlash katta rol o'ynaydi. Tahlil natijasida olingan axborotlar asosida qabul qilingan boshqaruv qarorlari mehnat haqini o'z vaqtida va to'liq buxgalteriya hujjatlarida va hisob registrlarida aks ettirish bilan birga, mehnat haqini bo'yicha to'lovni o'z vaqtida amalga oshirishni ta'minlab, mehnat unumdorligini oshirishga ijobiy ta'sir qiladi. Shu bilan birga, fermer xo'jaliklarida mehnatga haq to'lash fondini rejalashtirish tartibini o'zgartirish bilan bir qatorda mehnatga haq to'lashning ilg'or shakllarini qo'llashga, mehnatga haq to'lashning rag'batlantirish rolini kuchaytirishga, erishilgan yuqori natijalardan moddiy manfaatdorlikni oshirishga alohida etibor berilishi ham mehnat unumdorligini oshirishga jobyiy ta'sir etishi e'tiborga olinishi lozim. Bular tadqiqot mavzusining dolzarbligi va ahamiyatli ekanligini belgilab beradi.

Shu bilan birga qayd etish lozimki, iqtisodchi olimlarimiz tomonidan fermer xo'jaliklarida mehnatga haki va mehnat unumdorligi tahlili yagona bir tizimga keltirilgan holda alohida ilmiy-tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

³ Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. -T.: O'zbekiston, 2008. -49 b.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi - iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fermer xo'jaliklarida mehnatga haqi va mehnat unumdorligi tahlilini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

1. Mehnatga haq to'lash fondi shakllanishi va sarflanishini takomillashtirish;
2. Mehnat va unga haq to'lashning dastlabki, sintetik va analitik hisobini takomillashtirish;
3. Mehnat va unga haq to'lash bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilishni takomillashtirish;
4. Mehnat unumdorligi tahlil qilish asosida, uni yanada oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

Ushbu vazifalarni bajarish uchun ilmiy-tadqiqotning tahlil va sintez, muammoga mantiqiy va tizimli yondashuv, statistik va qiyosiy tahlil, taqqoslash, guruhlash kabi usullardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti Kattaqo'rg'on tumani fermer xo'jaliklari hisoblanib, predmeti esa fermer xo'jaliklarida mehnat haqi va mehnat unumdorligi tahlili jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati uning ilmiy taklif va amaliy tavsiyalari fermer xo'jaliklarida mehnatga hak to'lash hisobini, mehnat haqi va mehnat unumdorligi tahlilini tashkil etishni takomillashtirishda qo'llanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

1. MAVZUNI NAZARIY ASOSLASH VA ADABIYOTLAR SHARHI

Fermer xo'jaliklarida mehnatga hak to'lash hisobi, mehnat haqi va mehnat unumdorligi tahlilining hozirgi holati bo'yicha umumiy xulosalar qilinib, ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritilishi, fermer xo'jaliklarida mehnatga hak to'lash hisobini, mehnat haqi va mehnat unumdorligi tahlilini takomillashtirib, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Shu jihatdan olganda, mehnat haqi hisobini va mehnat unumdorligi tahlilini takomillashtirish masalalari ilmiy tadqiqotlarda alohida e'tibor bilan qaralmoqda.

Quyida malakaviy bitiruv ishini bajarish davomida foydalanilgan myo'riy-huquqiy hujjatlar va o'quv-ilmiy adabiyotlarga sharh berib o'tamiz:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahrirda). Fermer xo'jaligi to'g'risida. 26.08.2004.

Ushbu Qonunning maqsadi fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning 3-moddasida «Fermer xo'jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir» deb ta'rif berilgan. Shuningdek qonunda fermer xo'jaligini tashkil etish shartlari (5-modda), fermer xo'jaligini tashkil etish tartibi (6-modda), fermer xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish (7-modda), fermer xo'jaligining ustavi (8-modda), fermer xo'jaliklari yuritish uchun yer uchastkalari berish tartibi (11-modda), qishloq xo'jaligi kooperativlari (fermer xo'jaliklari) a'zolari tomonidan fermer xo'jaligini tashkil etish xususiyatlari (12-modda), yerdan foydalanish (13-modda), yer uchastkasidan foydalanganlik uchun to'lanadigan haq (14-modda), suvdan foydalanish (15-modda), fermer xo'jaligining huquqlari (16-modda), fermer xo'jaligining majburiyatlari (17-modda), fermer xo'jaligining mablag'lari va hisob-kitoblari (20-modda), fermer xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyati (22-modda), mahsulotni fermer xo'jaligi tomonidan realizasiya qilish tartibi (24-modda), fermer xo'jaligini kreditlash va sug'urtalash (26-modda), fermer xo'jaliklarini davlat yo'li bilan va

boshqa tarzda qo'llab-quvvatlash (29-modda), fermer xo'jaligini tugatish asoslari (32-modda) kabilar alohida moddalarda belgilab berilgan.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom. 05.02.1999. №54-son.

Mazkur Nizom xo'jalik yurituvchi subyektlar-yuridik shaxslarning, shuningdek, yuridik shaxs bo'lmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini aniqlashning yagona metodologik asoslarini belgilaydi. Nizom buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida xarajatlarni hisoblab chiqishda paydo bo'ladigan tafovutlar hisobga olingan holda ishlab chiqilgan. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatbardoshligini aniqlash maqsadida ular faoliyatining xarajatlarini hisoblab chiqish va moliyaviy natijalarini aniqlash buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi hisoblanadi. Soliq solinadigan daromad (foyda) xo'jalik yurituvchi subyektlar xarajatlarining ayrim moddalarini soliq haqidagi qonunlarga muvofiq soliq solinadigan bazaga kiritish yo'li bilan aniqlanadi.

Ushbu nizomni qabul qilinishi korxonalar daromadlari va xarajatlarini aniq belgilangan guruhlariga ajratib hisobga olish hamda mehnat haqi hisobi tartibini belgilab berdi. Jumladan, mehnat haqi xarajatlarini qaysilari mahsulot tannarxiga kiritiladi, qaysilari davr xarajatlariga olib boriladi. Bu mahsulot tannarxini iqtisodiy asoslangan holda aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari ushbu nizomda mehnat haqi bilan bog'liq ajratmalarni har birini ta'rif va aniqlash hisob – kitobi berilib, bu xalqaro andozalarga mos keladi.

3. Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. -T.: O'zbekiston, 2014. -34 b.

Ushbu asarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yilda

mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning yeng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi yoritilgan. Unda mamlakatni rivojlantirish, yangilash, modernizatsiya qilishning to'g'ri tanlangan strategiyasi, qabul qilingan dasturlarni bajarish borasida o'tgan yilda kuch va imkoniyatlarning safarbar qilinishi tufayli iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning barqaror sur'atlarini, xalq bardamligi va farovonligini oshirishni ta'minlashga muvaffaq bo'linganligi qayd etilgan.

Bu davrda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,0 foizga, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,8 foizga oshganligi aytib o'tilgan. Shuningdek, makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotning mutanosibligi ta'minlanib, eksport hajmi sezilarli ravishda o'sganligi, eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibi va sifati yaxshilanib borayotganligi, 2013-yilda eksport hajmining o'sishi 10,9 foizdan iborat bo'lganligi, tashqi savdo faoliyatidagi ijobiy saldo 1 milliard 300 million dollarni tashkil etganligi, qimmatbaho metallar narxining keskin pasayganiga qaramasdan, mamlakatimiz oltin-valyuta zaxirasi o'tgan yil davomida 2 foizga ko'payganligi ta'kidlangan.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasida hozirgi kunda 80 mingdan ortiq, shu jumladan 18 mingdan ortiq ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatmoqda. Ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotgani paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi. Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga zamin tug'dirdi, kerak bo'lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda. Xususan, g'alla yetishtirish 2000-yilga nisbatan 2 barobar, kartoshka – 3,1-marta, sabzavot – 3,2 barobar, uzum – 2-marta, go'sht va sut – 2,1 karra, tuxum – 3,4 barobar oshdi.

O'tgan 2013-yilda dehqon va fermerlarning fidokorona mehnati bilan 7 million 800 ming tonna g'alla, 8 million 400 ming tonna sabzavot, 3 million 360 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi yetishtirildi.

4. Alikulov A.I., U.T.Eshmuradov, Qurbonov I., Ibragimov U. Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi. – Samarqand: N-Doba, 2009. – 247 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning xususiyatlari, shuningdek fermer xo'jaliklarida hisob va hisobotni yuritishning tamoyillari, shakllari, analitik, sintetik hisobi ko'rsatib o'tilgan. Qo'llanma o'zida 16 mavzu va ulargi tegishli ilovalarni qamrab olib, 11 mavzu fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini aniqlash xususiyatlariga bag'ishlangan. Umuman olganda, ushbu o'quv qo'llanmada fermer xo'jaliklarida hisob yuritish tartibi, o'simlikchilikda mahsulot tannarxini aniqlash, hisob va hisobotlarda aks ettirish hamda ular hisobini takomillashtirish bo'yicha tegishli xulosa va takliflar berish to'la yoritilgan bo'lib, bulardan bitiruv ishi yozishda keng foydalanildi.

5. Abdullayev A., Aybeshov X. Fermer xo'jaligi iqtisodi. -T.: IQTISOD-MOLIYA, 2011. – 324 b.

O'quv qo'llanma 17-bobdan iborat bo'lib, qo'llanmaning 8-bobida fermer xo'jaliklarining asosiy vositalari, tarkibi, tuzilishi, ularga amortizatsiya hisoblash yo'llari keng bayon etilgan. Bu bobda asosiy vositalar, mulk shakllari, klassifikatsiyasi, bahosi va takror ishlab chiqarish, asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanish ko'rsatkichlari, ularning harakati, sifat holati va foydalanishning samaradorligi, asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish samaradorligi, shuningdek, amortizatsiyani hisoblash usullarini belgilash, shuningdek asosiy vositalarning balans qiymatidagi boshqa o'zgarishlarni va ularning chiqib ketishi hisobiga moliyaviy natijalarni belgilash, fermer xo'jaliklari intensiv rivojlantirish uchun fermer xo'jaliklarida asosiy vositalar bilan ta'minlanish darajasini oshirish, asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

6. Abdug'aniyev A. Qishloq xo'jalik yerlaridan to'liq va samarali foydalanish istiqbollari. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. -Toshkent, 2013. -№7. –B. 35-36.

Muallif bugungi kunda qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yer maydonlarining holati to'g'risida fikr yuritib, qishloq xo'jalik, ayniqsa, sug'oriladigan maydonlarning qisqarib borishi ulardan to'liq va samarali foydalanishni talab etadi.

Muallif sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish yerlarning meliorativ holatining yaxshilanishiga, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishning ko'payishiga, aholining shu mahsulotlarga bo'lgan talabining to'liq qondirilishiga va bu orqali farovon hayot kechirish darajasi yuksalishi ta'minlanadi, deb ta'kidlaydi.

7. Aralov X. Dehqon xo'jaliklarining mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2010. -№2. 27-28 b.

Muallif aholi va uning ijtimoiy guruhlarining yalpi xarajatlari – bu turli xo'jalik subyektlaridan tovar va xizmatlarni sotib olish xarajatlari summasi, moliya kredit tizimlariga to'lovlar, shaxsiy yordamchi xo'jalik mahsulotlaridan iste'mol va ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanilganliklari va ko'rilgan zararlar, qarzlarni yopish, qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun to'langan to'lovlarda ifodalanadi deb ta'rif beradi. Yalpi xarajatlar, uning tarkibi va dinamikasi – bu iqtisodiy rivojlanish darajasini, aholi turmush darajasini ifoda yetuvchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Yalpi xarajatlarning o'rni belgilab beruvchi muhim ko'rsatkichlardan biri – bu uning yalpi ichki mahsulotga nisbatan hissasi hisoblanadi, deb fikr yuritadi. Shuningdek, muallif tannarxni pasaytirish bo'yicha belgilangan parametrlarga erishish uchun rahbar va mas'ul xodimlarni rag'batlantirishning ta'sirchan mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir deb hisoblaydi.

8. Abduvohidov F., Sotivoldiyeva D. Mahsulotlar tannarxi va uning buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalalari.//Bozor, pul va kredit. – Toshkent, 2011. -№4. – 53-55 b.

Mualliflar ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish xarajatlarining har bir moddasi ustidan kundalik nazoratni o'rnatish, ortiqcha sarflarga yo'l qo'ymaslik buxgalteriya hisobining muhim vazifalaridan biri ekanligi, bu xarajatlarni umumiy ishlab chiqarish xarajatlari sifatida hisobga olinishini ta'kidlab, umumiy ishlab chiqarish xarajatlari hisobida ayrim muammolar, ya'ni umumiy ishlab chiqarish xarajatlarining buxgalteriya hisobini tashkil etish bilan bog'liq muammolar va taqsimlash bilan bog'liq muammolar mavjudligini ko'rsatishgan. Bu muammolarni hal etishda umumiy ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida hisobga olinayotgan mashina va va asbob-uskunalarni saqlash va foydalanish xarajatlarini buxgalteriya hisobining milliy schyotlar rejasiga yangi 2400-«Ishlab chiqarish vositalarini ta'mirlash xarajatlari hisobi» schyotini kiritish va ushbu schyotga korxona bo'yicha sarflangan ta'mirlash xarajatlari to'g'risida ma'lumotlarni shakllantirish, bu schyotning debet tomonida jami haqiqiy ta'mirlash xarajatlari va kredit tomonida ushbu xarajatlar kalkulyasiya obyektlariga hisobot oyi oxirida taqsimlanganda aks ettirish maqsadgu muvofiq, deb hisoblashadi.

9. Do'smurotov R.D., Mengliqulov B.Yu. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2014. - 392 b.

Ushbu o'quv qo'llanma 10 ta bobdan iborat bo'lib, uning 7-bobi "Asosiy ishlab chiqarish jarayoni hisobi va mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiyalash" (161-226 betlar) deb nomlanib, dehqonchilik va chorvachilikning barcha tarmoqlarida tannarxni aniqlash usullari aniq ko'rsatilib o'tilgan va biz bitiruv malakaviy ishning asosiy qismini yoritishda ushbu bobdagi fikrlardan foydalandik. Bundan tashqari o'quv qo'llanmada xo'jalik hisobi, uning turlari, buxgalteriya hisobining mohiyati, maqsadi va vazifalari, axborotdan foydalanuvchilarning har xil toifalari, buxgalteriya hisobining predmeti va metodi,

balansning mohiyati va tuzilishi bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqqan holda yoritilgan. Shuningdek, buxgalteriya hisobining schotlari va ikki yoqlama yozuv, hujjatlashtirish, inventarizatsiya, baholash va kalkulyatsiya, analitik va sintetik hisobning xususiyatlari tushunarli va batafsil bayon qilingan.

10. Dehqonchilik madaniyati – fermerlar majburiyati (fermerlar uchun tavsiyalar). // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. -Toshkent, 2013. -№6. –B. 10-13.

Mazkur tavsiyada dehqonchilik tadbirlari va yumushlarini belgilab qo'yilgan tartib va talablarga mos ravishda bajarish yoki boshqacha aytganda, dehqonchilik madaniyatiga amal qilish, fermer xo'jaliklari boshliqlari va a'zolarining bu boradagi vazifa va majburiyatlari bayon etilgan.

Fermer xo'jaliklari uzoq muddatga ijaraga berilgan sug'oriladigan yer maydonining har bir qarichidan oqilona va samarali foydalanish orqali dehqonchilik madaniyatini ko'tarish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish hamda qo'shimcha daromad olish yo'l-yo'riqlari ko'rsatib berilgan.

11. Ismoilov A., Murtazayev O. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. –T.: Moliya, 2005.

Ushbu darslik 4-bo'lim, 33-bobdan iborat bo'lib, darslikning birinchi bo'limi qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining umumiy masalalari, ikkinchi bo'limi qishloq xo'jaligi resurslari va ulardan samarali foydalanish, uchinchi bo'limi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi va to'rtinchi bo'limi o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlari samaradorligini oshirish imkoniyatlariga bag'ishlanadi.

Darslikning 18-bobida qishloq xo'jalik mahsulotlari tannarxi va uni pasaytirish imkoniyatlariga bag'ishlangan bo'lib, bu bobda ishlab xarajatlari va tannarx tushunchasi, mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tashkil topishi, mahsulot tannarxini hisoblashning uslubiy asoslari hamda mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlari keng yoritilgan. Jumladan, tamaki ekinlari yetishtirish va yig'ib-terib olishdagi ishlab chiqarish xarajatlari, ya'ni 1 sentner mahsulot tannarxini hisoblash usullari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, darslikning

22-bobi tamakichilik samaradorligini oshirish imkoniyatlariga bag'ishlanib, bunda tamakichilikning xalq xo'jaligida ahamiyati, uning rivojlanishi, hozirgi ahvoli, tamakichilik istiqbollari hamda tamakichilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari to'g'risida so'z yuritilgan.

12. Niyozov S. Boshqaruv hisobida xarajatlar klassifikatsiyasi. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2012. №1. – 43-44 b.

Muallif korxonani boshqarish uchun xarajatlarning korxona bo'yicha umumiy hajmi haqidagi ma'lumotlarning o'zi yetarli emas, deb xisoblaydi. Buning uchun xarajatlarning paydo bo'lish joylari, kalkulyatsiya obyektlari, mas'uliyat markazlari va boshqa belgilari buyicha ham guruhlangan axborotlar zarur deydi. Boshqaruv hisobini tashkil qilish maqsadida xarajatlarni klassifikatsiya qilishda e'tiborni uchta mezonga, ya'ni korxona foydasiga o'tkazish davriga qarab, ishlab chiqarish hajmiga qarab va tannarxga kiritilish usuliga qarab tashkil etish lozim. Muallif xarajatlar klassifikatsiyasiga to'g'ri yondoshish boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda monitoringini o'tkazish maqsadida qo'llaniladigan axborotlar-ma'lumotlar asosida xarajatlar tarkibini hamda natijalarini chuqur tushunishga, mohiyatiga yetib borishga xizmat qiladi, deb ta'kidlaydi.

13. Pardayev M.Q., Xasanov B.A. va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. – T.: Cho'lpon, 2012. – 440 b.

Mazkur o'quv qo'llanma uch bo'lim, 25 bobdan iborat bo'lib, uning birinchi bo'limi iqtisodiy tahlil nazariyasiga, ikkinchi bo'limi boshqaruv tahliliga va uchinchi bo'limi moliyaviy tahlil usullariga bag'ishlangan. Qo'llanmaning 17-bobi «Korxonaning iqtisodiy salohiyatini baholash va tahlil qilish muammolari» va 22-bob «Korxonaning moliyaviy salohiyatini baholash va tahlil qilish yo'llari»ga bag'ishlangan bo'lib, bu boblarda xo'jalik yurituvchi subyektlarda korxona iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, ularni baholash, aniqlash yo'llari, shuningdek, korxonaning iqtisodiy va moliyaviy salohiyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning omilli tahlilining

metodologik jihatlari aniq amaliy ma'lumotlarni qo'llagan holda isbotlab berilgan. Bitiruv malakaviy ishni bajarishda ushbu tahlil usullaridan keng foydalanildi.

14. Sotivoldiyev A. va boshqalar. Финансовый и управленческий учет. –Т.: Iqtisod-moliya, 2012.

Ushbu darslikda buxgalteriya hisobining bir-biri bilan bog'liq va bir-biri to'ldiruvchi qismlari hisoblangan boshqaruv va moliyaviy hisob asoslari yoritilgan. Fermer xo'jaliklarida moliyaviy hisob bilan birga boshqaruv hisobini ham yuritilishi buxgalteriya hisobini uzluksiz va yoppasiga olib borish imkanini berib, boshqaruvchilarni korxona faoliyati bilan bog'liq axborotlar bilan to'la ta'minlash bilan birga, xo'jalik jarayonlari ustidan va mulkni saqlanishi hamda ulardan samarali foydalanish bo'yicha nazorat o'rnatish imkonini beradi. Darslikda pul mablag'lari, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, ishlab chiqarish zahiralari, ishlab chiqarish xarajatlari, tayyor mahsulotlar, majburiyatlar, korxona kapitali, moliyaviy natijalar hisobi keng yoritilgan. Shuningdek, xo'jaliklar faoliyatining yakunini o'zida aks ettiruvchi moliyaviy hisobotlarni to'zish, tayyorlash va taqdim etish masalari ham yoritilgan.

Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi to'g'ri tashkil etilishi va yuritilishi mulkdan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni barqaror yuritish, mahsulot tannarxini tshliq boshqarish, mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, umuman erkin raqobat sharoitida barqaror faoliyat yuritishiga olib keladi.

15. Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. – T.: Cho'lpon, 2013. – 312 b.

Mazkur darslik to'qqiz bobdan iborat bo'lib, unda xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilish, ishlab chiqarish zararsizligining tahlili, bdjetlashtirish, transfert bahoni shakllantirish, segmentlar bo'yicha hisob va hisobot kabi boshqaruv hisobining zamonaviy yo'nalishlari keng yoritilgan.

Darslikning II bob "Xarajatlarni turkumlash va hisobga olish" (23-49 betlar), III bobi "Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyasiya qilish usullari va zamonaviy tizimlari" (50-98 betlar) deb nomlanib, ayniqsa, uchinchi bobda

berilgan mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilishning usullari hamda tannarxni aniqlashning “Direkt-kosting” va “Standart-kost” tizimlari diqqatga sazovordir. Biz bitiruv malakaviy ishini uchinchi bobini yoritishda ushbu fikrlardan foydalandik.

16. Qudratov T. va boshqalar. Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining tahlili. – Samarqand: N-Doba, 2008. – 191 b.

Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishni yanada samarali rivojlantirish uchun ularning faoliyatini barcha tomonlarida sodir bo'lgan va bo'layotgan jarayonlar va ularning natijalarini har taraflama chuqur o'rganish natijasida mavjud imkoniyatlarni aniqlash hamda ularni ishlab chiqarishga jalb etish bo'yicha yo'l-yo'riqlarni ko'rsatish zarur. Ushbu muammolarni hal qilishda iqtisodiy tahlilning roli nihoyatda kattadir. Ushbu qo'llanma 13-bobdan iborat bo'lib, uning 8-bobi bevosita qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxining tahliliga bag'ishlanadi. Bu bobda tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tannarxini aniqlash, hisoblash tartibi aniq misollar bilan yoritilgan. Bundan tashqari ushbu bobda tannarxni xarajat moddalari bo'yicha omilli tahlil qilish usullari va yo'llari batafsil bayon qilingan.

Umuman olganimizda, ushbu o'quv qo'llanmada fermer xo'jaliklarlari xo'jalik faoliyatini qamrab oluvchi barcha ko'rsatkichlarini aniqlash, tahlil qilish va tahlil asosida tegishli xulosa va takliflar berish to'la yoritilgan bo'lib, bulardan bitiruv ishi yozishda keng foydalanildi.

17. Сменов В.М. Экономика предприятия. –Санкт Петербург: Питер, 2010. - 416 с.

Ushbu darslik ikki bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'lim "Iqtisodiyot korxonaning faoliyat ko'rsatishining asosi" deb nomlanib, uning to'rtta bobida korxonaning bozor iqtisodiyoti tizimidagi o'rni, korxonaga mikro va makro muhitning ta'siri, korxonada tovar siyosatining asoslari hamda korxonaning tarkibiy tuzilish shakllari yoritilgan.

Ikkichi bo'lim "Korxonaning resurslari va ulardan foydalanish natijalari" deb nomlanib, o'n bitta bo'limdan iborat. Ushbu bo'limda korxonaning mavjud resurslari salohiyati va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Jumladan, darslikning to'qqizinchi bobida korxonaning xarajatlari keng yoritilib, unda xarajatlarning mohiyati va turlari, xarajatlar smetasi va kalkulyasiyasi, fayda - korxona faoliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri ekanligi yoritilgan.

Ushbu darslikdan bitiruv malakaviy ishini bajarishda mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish yo'llari, tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash hamda tegishli xulosalarni shakllantirishda keng foydalanildi.

18. O'zbekiston Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi matbuot xizmati. Islohotlar taraqqiyot va rivojlanishga xizmat qilmoqda. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2014. -№2. –B. 1-2.

Mazkur maqolada mamlakatimiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarishlar va sifat jihatdan yangilanish borasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar to'g'risida fikr yuritilgan. Jumladan, 2013 yilda mamlakatimiz fermer xo'jaliklari tomonidan 7 million 800 ming tonna g'alla, 8 million 400 ming tonna sabzavot yetishtirildi. Ulkan xirmonga 3 million 360 ming tonnadan ortiq paxta xom ashyosi yetkazib berildi.

Bugungi fermer xo'jaliklari samarali faoliyat yuritishlari uchun o'z ixtiyorida ijara asosidagi yetarlicha ekin maydonlariga ega bo'lgan, yuksak samarali zamonaviy texnika bilan ta'minlangan, ilg'or texnologiyalarini puxta egallagan yirik xo'jaliklardir. Yurtboshimizning fermer xo'jaliklari qishloqlarimizning tayanch ustunidir, degan ta'riflagani bejis emas. Bitiruv malakaviy ishida ushbu maqolada berilgan raqamlardan foydalandik.

2. QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLAR SALOHIYATI VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

2.1.Yer resurslari va ulardan foydalanish imkoniyatlari

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan hamda suvdan oqilona samarali foydalanish - qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish orqali mamlakatda oziq-ovqat muammosini hal qilishda nihoyatda katta rol o'ynaydi.

Qishloq xo'jaligida yer-suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Yer va suvdan foydalanish darajasi oshgan sayin mahsulot hajmi ko'payib, ishlab chiqarish samaradorligi oshib, natijada iqtisodiyot mustahkamlanib boradi. Shuning uchun ham yer va suv resurslaridan foydalanish darajasini uzluksiz ravishda tahlil qilish zarur. Ushbu iqtisodiy jarayonni Kattaqo'rg'on tumani fermer xo'jaliklarida yaroqli bo'lgan yer resurslarining hozirgi holatini o'rganish asosida ulardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlab, takliflar berishdan iboratdir.

Yer umum milliy boylikdir, O'zbekiston Respublikasi halqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Yer to'g'risidagi qonun hujjatlari quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

- eng muhim tabiiy resurs, fuqarolar hayotiy faoliyatining asosi tariqasida yer fondini asrash, tuproq sifatini yaxshilash hamda uning unumdorligini oshirish;
- yerlardan oqilona, samarali va belgilangan maqsadda foydalanishni ta'minlash;
- qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarning, eng avvalo sug'oriladigan yerlarning alohida muhofaza etilishini, kengaytirib borilishini hamda ulardan qat'iy belgilangan maqsadda foydalanishni ta'minlash;
- qishloq xo'jaligi yerlarining unumdorligini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda yerlarni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishni davlat yo'li bilan va boshqa tarzda qo'llab-quvvatlash;

– yerga va butun atrof tabiiy muhitga zarar yetkazilishining oldini olish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash;

– yerga egalik qilish va undan foydalanish shakllarining xilma-xilligi, yer munosabatlari ishtirokchilarining teng huquqliligini ta'minlash hamda ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya etish va h.k.

Bitiruv malakaviy ish obyekti bo'lgan Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yirik tumanlaridan biri bo'lib, u 1929 yil 2 fevralda tashkil etilgan, umumiy maydoni 0,9 ming km². Shahar tipidagi posyolkalar (shaharchalar) soni – 8 ta, mahalla fuqarolari yig'inlari soni – 69 ta, shundan shahar mahallalari soni – 14 ta, qishloq fuqarolari yig'inlari soni – 11 ta, qishloq aholi punktlari – 172 tani tashkil etadi. Tuman Navoiy viloyati hamda Samarqand viloyatining Pastdarg'om, Nurobod, Ishtixon, Narpay va Qo'shrobdod tumanlari bilan chegaradosh.

Kattaqo'rg'on tumanida so'nggi uch yilda qishloq xo'jalik ekinlari maydoni dinamikasini o'rganib, tahlil qilganimizda quyidagi natijalarga erishdik (2.1.1-jadval).

2.1.1-jadval

Kattaqo'rg'on tumanida qishloq xo'jalik ekinlari maydoni dinamikasi*

Ekin turlari	O'lchov birligi	Yillar			2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarishi	
		2011	2012	2013	+/-	%
G'alla	ga	8935	9485	9131	196	102,2
Paxta	ga	14398	13848	14202	-196	98,6
Sabzavot	ga	938	355	552	-386	58,8
Poliz	ga	70	70	140	70	2 marta oshgan
Meva	ga	452	452	452	0	100,0
Uzum	ga	1008	1043	1043	35	103,5
Jami:	ga	25801	25253	25520	-281	98,9

***Manba:** Samarqand viloyat Statistika boshqarmasi 2011-2013 yillar hisobot ma'lumotlari.

Yuqoridagi 2.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tumanda 2013 yilda 25520 gektar maydonda qishloq xo'jalik ekinlari yetishtirilib, bu 2011 yilga nisbatan 281 gektar yoki 1,1 foizga kamaygan. Tumanda asosiy ekin maydonlari g'alla (35,8 foiz) va paxta (55,7 foiz) ga ajratilgan bo'lib, bu tarmoqlarda, ya'ni paxta ekinlari maydoni 2013 yilda 196 gektarga qisqarib, shunga mos ravishda g'alla ekin maydoni 196 gektarga oshgan.

Mamlakatimiz aholisi sonining o'sishi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish va mahsulot sifatini yanada yaxshilashni talab qiladi.

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lgan o'simlikchilikda yetishtiriladigan natura mahsulotlarining miqdori yalpi hosil deb ataladi. Kattaqo'rg'on tumani qishloq xo'jalik korxonalarida qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi va yalpi hosili dinamikasini o'rganganimizda quyidagicha bo'lgan (2.1.2-jadval).

2.1.2-jadval

Kattaqo'rg'on tumani qishloq xo'jalik korxonalarida ekinlar hosildorligi va yalpi hosil dinamikasi*

Ekin turlari	2011 yil			2013 yil			2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarishi, +/-		
	Ekin maydoni, ga	Hosildorligi, s/ga	Yalpi hosil, t	Ekin maydoni, ga	Hosildorligi, s/ga	Yalpi hosil, t	Ekin maydoni hisobiga	Hosildorlik hisobiga	Yalpi hosil bo'yicha
G'alla	8935	50,3	44943	9131	59,0	53903	196	8,7	8960
Paxta	14398	25,6	36876	14202	23,1	32860	-196	-2,5	-4016
Sabzavot	938	193,5	18142	552	164,8	9100	-386	-28,7	-9042
Poliz	70	242	1692	140	164	2298	70	-78	606
Meva	452	139,9	6325	452	66,2	2990	0	-73,7	-3335
Uzum	1008	143,2	14434	1043	83,5	8705	35	-59,7	-5729

*Manba: Samarqand viloyat Statistika boshqarmasi 2011-2013 yillar statistik hisobot ma'lumotlari.

2.1.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Kattaqo'rg'on tumani qishloq xo'jalik korxonalarida 2013 yilda 2011 yilga nisbatan faqatgina g'alladan (8960 tonna), poliz ekinlaridan (606 tonna) yuqori hosil olingan, boshqa qishloq xo'jalik ekinlari, ya'ni paxta (4016 tonna), sabzavot (9042 tonna), meva (3335 tonna), uzum (5729 tonna)dan kam hosil olingan. Bu kamayish bir gektardan olingan hosilning pasayishi hisobiga bo'lgan. Kattaqo'rg'on tuman fermer xo'jaliklarida ekinlar hosildorligini viloyatning boshqa tumanlari 2013 yilda paxta va g'alla hosildorligi dinamikasini o'rganganimizda (2.1.3-jadval) quyidagicha bo'lgan:

2.1.3-jadval

Kattaqo'rg'on tumanida paxta va g'alla hosildorligining viloyati tumanlariga nisbatan o'zgarishi* (2013 yil)

№	Tumanlar nomi	Hosildorlik, s		Kattaqo'rg'on tumanida boshqa tumanlarga nisbatan o'zgarishi, + / -	
		paxta	g'alla	paxta	g'alla
1	Kattaqo'rg'on	23,1	59,0	x	x
2	Bulung'ur	-	53,7		5,3
3	Jomboy	-	55,4		3,6
4	Ishtixon	28,0	68,1	-4,9	-9,1
5	Narpay	30,8	58,7	-7,7	0,3
6	Nurobod	16,8	18,8	6,3	40,2
7	Oqdaryo	23,4	65,4	-0,3	-6,4
8	Pastdarg'om	21,6	64,5	1,5	-5,5
9	Paxtachi	28,1	58,1	-5	0,9
10	Payariq	22,3	55,9	0,8	3,1
11	Samarqand	-	51,6	-	7,4
12	Tayloq	-	60,5	-	-1,5
13	Urgut	-	53,5	-	5,5
14	Qo'shrobd	-	18,5	-	40,5

*Manba: Samarqand viloyat Statistika boshqarmasi tegishli yillar hisobot ma'lumotlari

2.1.3-jadvaldagi raqamlardan ko'rinib turibdiki, Kattaqo'rg'on tumanida paxta hosildorligi hosildorligi gektariga 23,1 sentnerni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich viloyatning Nurobod (6,3 s.), Pastdarg'om (1,5 s.), Payariq (0,8 s.)

tumanlariga nisbatan hosildorlik biroz yuqori bo'lgan bo'lsa, qolgan tumanlar Ishtixon (4,9 s.), Narpay (7,7 s.), Oqdaryo (0,3 s.), Paxtachi (5,0 s.) tumanlariga nisbatan hosildorlik 0,3 sentnerdan 8 sentnergacha pasaygan. Xuddi shunday g'alla hosildorligi bo'yicha ham solishtirganimizda tumanda g'alla hosildorligi 2013 yilda 59 sentnerni tashkil etib, bu ko'rsatkich Bulung'ur (5,3 s.), Jomboy (3,6 s.), Narpay (0,3 s.), Nurobod (40,2 s.), Paxtachi (0,9 s.), Payariq (3,1 s.), Samarqand (7,4 s.), Urgut (5,5 s.), Qo'shrobod (40,5 s.) tumanlariga nisbatan yuqoriroq bo'lib, bu esa tumanda qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligini ko'rsatadi.

Kattaqo'rg'on tumani fermer xo'jaliklarida ekinlar hosildorligini oshirish uchun quyidagi agrotexnik tadbirlar va jarayonlarga e'tibor qaratish lozim:

- tuproqning eng yaxshi xususiyatlaridan biri uning unumdorligi, ya'ni uning hosil yetishtirish qobiliyatidir. Tuproqning nechog'li unumdorligi uning qay darajada g'ovakligi va tarkibidagi chirindi (gumus) miqdorining yuqoriligiga bog'liq. Olimlarimizning tahkidlashicha, keyingi 30-40 yil mobaynida tuproqlarda gumusning umumiy zahirasi 40-50 foizga kamaydi. Tuproqning unumdorligi birdan-bir buyuk boylik. Inson manfaati uchun undan oqilona va to'g'ri foydalanish lozim. Uning unumdorligini saqlash va tobora oshirib borish dehqonlarning doim e'tiborida bo'lishi zarur.

- yerga organik va mineral o'g'itlar bilan ishlov berish, tuproqning meliorativ holatini yaxshilash va uning g'ovakligini oshiruvchi shudgorlash va boshqa tadbirlar tuproq unumdorligini oshiruvchi agrotexnik tadbirlarning eng muximidir. Chunki bu tuproqning holati yaxshi bo'lishini, uning unumdorligi ortishini va sabzavotdan mo'l hosil olishni ta'minlaydi.

- mineral o'g'itlar samarasini va tuproq unumdorligini ko'paytirishning yana bir sinalgan vositalaridan biri dukkakli ekinlar, ayniqsa beda ekish hamda go'ng va boshqa organik o'g'itlarni qo'llashdir.

- hosildorlikni oshirishda oziqlantirish asosiy rolni o'ynaydi. Buning uchun siz g'o'zaning o'sa boshlagan dastlabki rivojlanish davridanoq, yetarli miqdorda oziq-moddalar bilan tahminlab tursangiz, ko'p va bar-vaqt hosil tugadigan bo'ladi.

- suvning ortiqcha berilishi esa g'ovlab, kam hosil bo'lib qolishiga, chanqatib yuborish esa, bor hosilning nobud bo'lishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun har gektar yerdagi sabzavotni sug'orishdagi sarf etiladigan umumiy suv miqdorini yoki mavsumiy normalarini, nav xususiyatlariga qarab mutaxassislar maslahatlari asosida belgilashingiz kerak. Vegetasiya davridagi suv sarflarini aniqlashda, yer osti suvining joylanishi va issiqlik haroratining ko'tarilishi hamda boshqa omillar hisobga olinadi.

Demak, yer va suv resurslaridan unumli foydalanish, olinadigan hosilni ko'paytirish maqsadida:

1. Mintaqa tuproq-iqlim sharoitiga mos ekinlarni, navlarni tanlash hamda ularga tegishli agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida sifatli o'tkazish.

2. Tuproq unumdorligini oshirishda organik, mineral o'g'itlardan oqilona foydalanish hamda siderat ekinlarni ekishni qo'llash.

3. Qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirishni takomillashtirish, hosildorlikni oshirish;

4. Mavjud ekin maydonlaridan, dala chetlaridan to'liq foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2.2. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish imkoniyatlari

Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari singari, qishloq xo'jaligida ham ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash va mahsulot hajmini ko'paytirish ishlovchilarning mehnatga bo'lgan munosabatiga, mehnatga munosabat esa ishlovchilarning moddiy manfaatdorligiga bog'liq bo'ladi.

2014 yilning 1 yanvar holatiga respublikada doimiy aholi soni 30488,6 ming kishini tashkil qildi va 2013 yil yanvar-dekabrda 495,1 ming kishiga yoki 1,7 foizga ko'paydi. Shundan, 15552,8 ming kishi - shahar (umumiy aholi sonining 51,0 foizi) va 14935,8 ming kishi - qishloq joylarida (49,0 foizi) istiqomat qiladi⁴.

Ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha mintaqaviy dasturlarning amalga oshirilishi natijasida 2013 yilda qariyb 970 ming kishi ish bilan ta'minlandi. Bu ish o'rinlarining 60,3 foizdan ortig'i qishloq joylarda yaratilgani e'tiborga molikdir. Jumladan, birgina ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish natijasida qishloq joylarda 90,9 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali aholining farovonligi va real daromadlarini ko'paytirishga ham e'tibor berilmoqda. Mehnat bilan band aholi daromadlarining asosiy qismini mehnat haqi tashkil etadi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «Barchamizga ma'lumki, aholi ish haqi va daromadlarining o'sish sur'ati eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi... Biz har uch yilda ish haqini 2 - 2,5 barobar oshirishni o'z oldimizga muhim strategik vazifa qilib qo'yganmiz. Shu tariqa, aholining xarid qobiliyatini hisobga olgan holda, biz yaqin yillar ichida xalq farovonligi va daromadlarini ta'minlash bo'yicha yuksak marralarga erishayotgan mamlakatlar darajasiga ko'tarilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz»⁵.

“2013-yilda xalqimizning real daromadlari 16 foizga oshdi, o'rtacha oylik ish haqi, pensiya, ijtimoiy nafaqa va stipendiyalar 20,8 foizga ko'paydi.

⁴ www.stat.uz – Davlat Statistika qo'mitasi rasmiy sayti

⁵ Karimov I.A.Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. -T.: O'zbekiston, 2008.

tadbirkorlikdan olinayotgan daromadlar aholi yalpi daromadlarining yarmidan ziyodini tashkil etmoqda.

Eng muhim jihati shundaki, O'zbekistonda eng past va eng yuqori daromad oladigan aholi guruhlari o'rtasidagi tafovut darajasi so'nggi yillarda 8 barobarga to'g'ri kelmoqda. Ko'pgina, shu jumladan, qo'shni davlatlarda bu raqam mamlakatimizdagi ko'rsatkichdan bir necha barobar yuqori ekani, ya'ni o'ta kambag'al va nochor aholi guruhlari va o'ta boylar guruhi orasidagi tafovut oshib borayotganini ta'kidlash lozim.

2013-yilda 2000-yilga nisbatan aholimizning iste'mol xarajatlari 9,5 barobar oshganining o'zi ko'p narsadan dalolat beradi⁶.

Fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishda, xo'jalikning mehnat resurslari bilan ta'minlanishi va ayniqsa ulardan samarali foydalanish katta rol o'ynaydi. Shuning uchun ham mehnat resurslari va ular bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar natijalarini statistik o'rganish va xulosalar chiqarish eng asosiy vazifalardan biridir.

Mehnat – bu insoning maqsadli faoliyati bo'lib, bu jarayonda u tabiat predmetlarini o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtiradi va o'zgartiradi. O'z kuchini qo'shgani holda inson, mehnat qurollaridan foydalanib, tabiat bergan materiallarni, kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan moddiy ne'matlarga, boyliklarga aylantiradi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligi mehnat resurslarining miqdoriga, tarkibiga, malakasiga va ulardan foydalanish samaradorligiga bog'liq. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslariga mehnatga yaroqli erkaklar -16 dan 60 yoshgacha, ayollar -16 dan 54 yoshgacha, shuningdek qishloq joyda yashovchi o'smirlar va nafaqaxo'rlar kiradi.

Mehnat resurslari deganda, qishloq xo'jaligida mehnatga layoqatli, bilim va malakaga, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lgan insonlar

⁶ “2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 18.01.2014. №13 (5913).

tushuniladi. Mehnat resurslari ishlab chiqarishni va xizmat ko'rsatish jarayonini harakatga keltiruvchi asosiy kuchdir. Boshqacha aytganda, mehnat resurslari iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi asosiy omillardandir. Shuning uchun ham ularning holati va harakatini, xo'jalikning ular bilan ta'minlanish darajasini hamda ulardan xo'jalikning foydalanish ahvolini o'rganish va mavjud imkoniyatlarni aniqlashda va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishda katta rol o'ynaydi.

Mehnat bilan band aholining daromadlarini ko'paytirishda mehnat haqini tegishli tartibda oshirib borish hisobiga erishish mumkin. «...ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, mamlakatimiz aholisining daromadlari va turmush darajasini muttasil oshirib borish masalalari doimiy e'tiborimiz markazida.... 2012 yilda aholining daromadlari miqdori 17,5 foizga o'sdi, eng kam ish haqi 26,5 foizga oshdi. Umuman olganda, 2000-yil bilan taqqoslaganda, real daromad aholi jon boshiga 8,6 barobar ko'paydi. Hisob-kitoblarga ko'ra, o'rtacha ish haqi iste'mol savatchasi bahosidan 4 barobardan ziyod oshdi»⁷.

Mehnat resurslaridan foydalanish o'rtacha bir ishlovchining bir yilda ishlagan kunlari soni, o'rtacha bir ishlovchining bir yilda ishlagan soatlari soni, ish kunining o'rtacha davomiyligi va ish vaqti fondi ko'rsatkichlari orqali ifodalanadi.

Kattaqo'rg'on tumani fermer xo'jaliklarining mehnat resurslari tarkibini o'zgarishini o'rganganimizda quyidagicha bo'lgan (2.2.1–jadval).

2.2.1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Kattaqo'rg'on tumanida 2013 yil davomida 251200 kishi aholisi bo'lib, bu 2011 yilga nisbatan 18845 kishiga yoki 8,1 foizga ko'paygan. Tuman aholisining 11104 nafari yoki 4,4 foizini fermer xo'jalik a'zolari tashkil etgan.

⁷Karimov I.A. Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. - T.: O'zbekiston, 2013.

2.2.1–jadval

Kattaqo'rg'on tumani fermer xo'jaliklarining mehnat resurslari bilan ta'minlanish darajasi, kishi*

T/r	Ko'rsatkichlar	Yillar		2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarishi, +/-
		2011	2013	
1.	Mavjud aholi soni, shundan:	232355	251200	18845
	shahar aholisi	46748	52362	5614
	qishloq aholisi	185607	198838	13231
2.	Mehnatga layoqatli aholi	117203	120864	3661
3.	Band aholi	98560	103942	5382
4.	Fermer xo'jaliklari a'zolari	11021	11104	83

***Manba:** Kattaqo'rg'on tuman Statistika bo'limi 2011-2013 yillar hisobot ma'lumotlari.

Demak, tuman fermer xo'jaliklarida mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun faqat qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish emas, balki ularni qayta ishlashni ham yo'lga qo'yish shu bilan birga mehnat unumdorligini yanada oshirish uchun xodimlarni moddiy rag'batlantirishni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

2.3. Moddiy resurslar va ulardan foydalanish imkoniyatlari

Bugungi kunda ekinlar hosildorligini oshirish, seleksiya va urug'chilikning ilg'or usullari, yuqori unumli texnologiya va agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishda tarmoqning moddiy bazasi va texnik jihatdan jihozlanganlik darajasini kuchaytirish mamlakatimiz qishloq xo'jaligini jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Xususan, keyingi 10 yil davomida qishloq xo'jalik korxonalariga 35 mingdan ziyod qishloq xo'jaligi texnikasi va ixcham uskunalar yetkazib berildi. Ulardan 11 mingdan ortig'i, jumladan qariyb 3 mingdan ko'p texnika vositasi lizing asosida olindi.

Prezidentimizning 2012 yil 21 maydagi "2012-2016 yillarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash Dasturi to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan tizimli chora-tadbirlar mazkur masalani hal etishga qaratilgan. Mazkur dastur qishloq xo'jaligi va qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini zamonaviy yuqori samaradorli, jahon talablari va standartlariga javob beradigan qishloq xo'jalik texnikasi va texnologik uskunalar bilan jihozlash darajasini oshirish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, yetakchi xorijiy kompaniyalarning to'g'ridan-to'g'ri investisiyalarini jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fermer xo'jaliklar ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning muhim omillaridan bo'lib, moddiy resurslar bilan ta'minlanishi hisoblanadi. Chunki har qanday qishloq xo'jalik korxonasi ishlab chiqarish faoliyatini barqaror bo'lishi va uning samaradorligini oshirish uchun moddiy resurslar bilan yetarli darajada ta'minlangan va ulardan samarali foydalangan bo'lishi kerak.

Moddiy resurslar deganda, mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan urug', o'g'it, yoqilg'i, yem-xashak va boshqa turdagi xom ashyo va materiallar qiymatlarining yig'indisi tushuniladi. Barcha turdagi yaroqli va sifatli moddiy resurslar bilan xo'jalik yetarli darajada (me'yor chegarasida) ta'minlansa va ulardan samarali foydalansa, albatta mahsulot ishlab chiqarish jarayoniga ijobiy ta'sir qiladi, natijada moddiy ne'matlar yetishtirish ko'payadi, sifati yaxshilanadi,

sof foydasi ko'payib, iqtisodi mustahkamlanadi, oqibatda milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga hamda xalqning turmush darajasining o'sishiga sababchi bo'ladi. Shu nuqtai nazardan fermer xo'jalikning moddiy resurslar bilan ta'minlanishi va ulardan foydalanish darajasini uzluksiz ravishda tahlil qilib turish va ular asosida mavjud imkoniyatlarni aniqlash hamda ularni jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish katta ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash katta ahamiyatga ega. Chunki ishlab chiqarishning mexanizatsiyalashganlik darajasi bevosita tarmoqda, xo'jaliklarda mavjud texnikaning miqdori va sifatiga bog'liq. Agar texnikalar yetarli miqdorda bo'lmasa, demak, qishloq xo'jaligi ishlarini agrotexnik muddatlarida bajarish mumkin emas. Bu, o'z navbatida, barcha natijaviy ko'rsatkichlarning pasayishiga olib kelishi turgan gap. Birgina shu misolning o'zi ishlab chiqarishda moddiy-texnika resurslarining ahamiyati qanchalik katta ekanligini ko'rsatadi. Har qanday tarmoqning moddiy-texnika bazasi ishlab chiqarishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, ishlab chiqarish jarayoni yuz berishi uchun, asosiy fondlar, xom ashyolar, mehnat resurslari va tadbirkorlik qobiliyatlari bo'lishi va ular birgalikda faoliyat ko'rsatishi lozim.

Kattaqo'rg'on tumani fermer xo'jaliklarida 2013 yil holatiga 18946 mln. so'm qiymatdagi asosiy vositalar bo'lib, 2.3.1-jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak, tuman fermer xo'jaliklarida 2013 yilda asosiy vositalar tarkibida eng yuqori salmoqqa mashina va uskunalar (27,3 foiz yoki 5169,4 mln. so'm) va bino (32,5 foiz yoki 6156 mln. so'm) ega. 2012 yilda jami asosiy vositalar qiymati 2011 yilga nisbatan 1062 mln. so'm yoki 5,9 foizga oshgan bo'lib, ko'payish bino qiymatining 3,1 foizga, uzatish moslamalari qiymatining 27,5 foizga, mashina va uskunalar qiymatining 21,9 foizga, mebel va ofis jihozlarining 61,3 foizga, kompyuter va hisoblash texnikalari qiymatining 4,2 martaga, transport vositalari qiymatining 7 foizga, mahsuldor hayvonlar qiymatining 55 foizga oshishi hisobiga bo'lgan.

2.3.1-jadval

Kattaqo'rg'on tumani fermer xo'jaliklarida asosiy vositalar qiymatining o'zgarishi*

T/r	Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil		2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarishi	
		Qiymati, mln. so'm	Salmog'i, %	Qiymati, mln. so'm	Salmog'i, %	Qiymati, mln. so'm	Salmog'i, %	+ ; -	%
1.	Bino	5969,3	33,4	6095,5	32,9	6156	32,5	186,7	103,1
2.	Inshoot	1509,3	8,4	1423,9	7,7	1405	7,4	-104,3	93,1
3.	Uzatish moslamalari	294,3	1,6	320,5	1,7	375,1	2,0	80,8	127,5
4.	Mashina va uskunalar	4239,7	23,7	4643	25,1	5169,4	27,3	929,7	121,9
5.	Mebel va ofis jihozlari	43,1	0,2	54,6	0,3	69,5	0,4	26,4	161,3
6.	Kompyuter va hisoblash texnikasi	54,8	0,3	96,5	0,5	171,5	0,9	116,7	313,0
7.	Transport vositalari	2475,3	13,8	2572,1	13,9	2607,9	13,8	132,6	105,4
8.	Mahsuldor hayvonlar	94,4	0,5	116,3	0,6	146,3	0,8	51,9	155,0
9.	Ko'p yillik o'simliklar	2587,5	14,5	2524,9	13,6	2338,5	12,3	-249	90,4
10.	Boshqa asosiy vositalar	616	3,4	654,6	3,5	506,5	2,7	-109,5	82,2
	Jami:	17884,0	100,0	18502,0	100,0	18946	100,0	1062	105,9

***Manba:** Samarqand viloyat Kattaqo'rg'on tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi 2011-2012-2013 yillar statistik hisobot ma'lumotlari.

Fermer xo'jaliklari uchun tayyor mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish xalq xo'jaligi va aholi ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy bosqichi hisoblanadi. Mahsulotni rejadagi hajmi bo'yicha sotish ishlab chiqaruvchiga ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash, davlat byudjeti, kredit bo'yicha banklar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar oldidagi majburiyatlarni bajarish imkoniyatini yaratadi hamda ishlab chiqarishni takomillashtirish va kelajakda rivojlanish uchun muhim bo'lgan foyda olishga yordam qiladi.

Kattaqo'rg'on tumani fermer xo'jaliklarida keyingi uch yillik uzumchilik tarmog'i asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'rganib, tahlil qildik va quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ldik (2.3.2-jadval).

2.3.2-jadval

Kattaqo'rg'on tumani fermer xo'jaliklarida paxta va g'alla ishlab chiqarish asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi*

№	Ko'rsatkichlar	Paxta	G'alla
1.	Ekin maydoni, ga	14202	9131
2.	Hosildorlik, s/ga	23,1	59,0
3.	Yalpi hosil, tonna	32860	53903
4.	Jami xarajat, mln. so'm	29273	18543
5.	Jami daromad, mln. so'm	31749	22370
6.	Yalpi foyda, mln. so'm	2476	3827
7.	Bir tonna sotish bahosi, ming so'm	966	415
8.	1 gektar hisobiga qilingan xarajat, ming so'm	2061	2031
9.	1 gektardan olingan daromad, ming so'm	2236	2450
10.	Bir tonna tannarxi, ming so'm	891	344
11.	1 gektardan olingan foyda, ming so'm	174	419
12.	Rentabellik darajasi, %	8,5	20,6

***Manba:** Samarqand viloyat Statistika boshqarmasi 2013 yil statistik hisobot ma'lumotlari

2.3.2-jadvalda Kattaqo'rg'on tumanida 2013 yilda paxta va g'alla ishlab chiqarish asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilganimizda, paxtachilikdan jami 2476 mln. so'm foyda olinib, rentabellik 8,5 foizni tashkil etgan. G'allachilikdan esa 3827 mln. so'm foyda olinib, bunda rentabellik darajasi 20,6 foizni tashkil etgan

3. FERMER XO'JALIKLARIDA MEHNATGA HAQ TO'LASH HISOBI VA MEHNAT UNUMDORLIGI TAHLILINI TASHKIL ETISH

3.1. Mehnatga haq to'lashning shakllari, fondi va uning tarkibi

Har qanday ishlab chiqarish insoniyatni ma'lum bir ehtiyojini qondirishga qaratiladi. Har qanday ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun mehnat predmeti va mehnat kurollari bilan birgalikda albatta inson mehnatini birlashuvi zarur bo'ladi. Mehnat bu - inson tomonidan ma'lum bir maqsadda amalga oshirilayotgan harakatdir. Mehnat haqi esa insonni bajargan ishiga yoki sarflagan vaqtiga qarab to'lanadigan haqdir.

Inson o'z mehnati bilan ishlab chiqarish jarayonida qatnashadi. Mehnat bir tomondan ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishning zaruriy sharti bo'lsa, ikkinchi tomondan inson uchun daromad olishning asosiy manbasi hisoblanadi.

Inson o'z ehtiyojlarini qondirish uchun ham mehnat qiladi. Natijada ma'lum bir mahsulot(ish, xizmat)lar yaratiladi. Ushbu yaratilgan mahsulot(ish, xizmat)larni ishlab chiqarish xarajatlari mehnat predmetlari sarfi, mehnat qurollarini yeyilishi va ishchi kuchiga to'langan xaqdan tashkil topadi. Har qanday mahsulot(ish, xizmat)larni tannarxini bir qismini mehnat xaqi xarajatlari tashkil qiladi. Demak inson mehnatiga to'lanadigan xaqni to'g'ri belgilanishi ya'ni uni barcha zaruriy ehtiyojlarini qondiradigan darajada bo'lishi, insonni yanada samarali mehnat qilishga undaydi. Bu esa ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga, uni tannarxiga va natijada ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mualliflar O.Bobojonov va K.Jumaniyozovlar ta'kidlaganidek «Ish kuchi ishlab chiqarish jarayonida markaziy o'rinni egallaydi va ishlab chiqarish zahiralarini tarkiblanishidan biri hisoblanadi».

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi Respublikamizda mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Kodeksining 153-moddasiga asosan «Mehnati haqining miqdori ish beruvchi bilan xodim o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Mehnat haqi qonun hujjatlari bilan belgilangan eng

kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas va uning eng ko'p miqdori biron bir tarzda cheklanmaydi».

Mehnat haqining turi, shakli va tizimlari, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar, rag'batlantirish tarzidagi to'lovlar ish beruvchi bilan ishlovchi o'rtasida tuzilgan shartnomalarda, shuningdek ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib qabul qilinadigan boshqa tegishli hujjatlarda belgilanadi. Mehnatga haq asosan pul shaklida to'lanadi, ayrim hollarda, O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilangan hollarda natura shaklida to'lanishi mumkin.

Har bir mehnat turi uning shaklidan qat'iy nazar uni tashkil etishni talab etadi. Ma'lumki mehnatni tashkil etish eng avvalo xo'jalik subyekti yoki tashkilot miqiyosida chegaralangan bo'ladi. Xo'jalik subyektida mehnatni tashkil etish, mehnat resurslaridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar yig'indisini o'zida mujassam etadi. U o'z ichiga qo'yidagi vazifalarni qamrab oladi: alohida va hamkorlik, tartibga solish va rag'batlantirish, ish joylarini tashkil etish va ularga xizmat ko'rsatish, mehnat uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratib berish va hokazolar. Mehnatni tashkil etishning obyekti bo'lib, mehnat jamoasidagi xodimlarning mehnati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi mulkchilikning turli shakllari paydo bo'lishi, natijada yangicha xo'jalik yuritish tizimlari paydo bo'lishiga olib keldi. Bunday sharoitda fermer xo'jaliklarida mehnat resurslari va ularning ishlatilishini belgilab beruvchi buxgalteriya hisobi va tahlilining uslubiyati yangi sharoitga moslashishi talab etiladi. Fermer xo'jaliklarida endilikda nafaqat o'zining ichki omillarini, balki tashqi omillarni ham inobatga olishi zarurdir. Fermer xo'jaliklarini boshqarish nuqtai nazaridan esa korxona xodimlari soni, tarkibi, mehnat unumdorligi, ish haqi va ish haqi fondi, ish haqiga nisbatan ajratmalar, ularning ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga mos kelishi yoki kelmasligi, mehnat va ish haqi bo'yicha unumsiz xarajatlar, asosiy ishlab chiqarish xodimlari va ma'muriy boshqaruv xodimlari bo'yicha ish haqi

xarajatlari kabi ishonchli ma'lumotlar zarur bo'ladi. Ushbu ma'lumotlarni ishonchliligi xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblar hisobi va tahlili asosida ta'minlanadi.

Ishlovchilarga to'lanadigan mehnat haqini iqtisodiy asoslangan holda oshirib borish asosida, xodimlar moddiy manfaatdorligini ta'minlash hozirgi kundagi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Moddiy manfaatdorlik to'g'ri yo'lga qo'yilganda, ya'ni ishlovchilarning oladigan mehnat haqlaridan qoniqish hissi paydo bo'lgandagina, xodimlarning mehnatga bo'lgan munosabati o'zgarib, mehnat intizomi mustahkamlanib, mehnat unumdorligi oshib, umuman fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish samadorligi oshadi. Bunday ma'suliyatli vazifani hal etish boshqaruv jarayonining samaradorligini oshirishga, boshqaruv tizimini ishonchli va aniq axborotlar bilan ta'minlashga xizmat qiluvchi hodimlar bilan mehnatga haq to'lash hisobi xalqaro standartlar talablari asosida tashkil etishni va tahlilini to'g'ri amalga oshirishni talab etadi.

Fermer xo'jaliklarida xodim mehnatiga tarif tizimi asosida sarflangan mehnat miqdori va sifatiga muvofiq haq to'lanadi.

Tarif tizimi - tarif-malaka ma'lumotnomasi, tarif setkasi va tarif stavkasi kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Fermer xo'jaliklarida bajariladigan ishlarning ishlab chiqarish tavsifi tarif-malaka ma'lumotnomasida keltiriladi. Ushbu hujjat xodimlar malakasini aniqlash va ularga ma'lum razryad belgilashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Tarif setkasi - bu razryadlar va ularga tegishli bo'lgan tarif koeffitsiyentlari ko'rsatiladigan hujjatdir. Fermer xo'jaliklarida birinchi razryadning tarif koeffitsienti birga teng bo'lib, razryad ortgan sari tarif koeffitsienti ham oshib boradi.

Tarif stavkasi - xodimning razryadiga muvofiq unga ma'lum vaqt birligi(soat,kun) uchun to'lanadigan haq miqdorini aniqlaydi. Odatda tarif stavkasi birinchi razryad uchun belgilanib, qolgan razryadlar uchun esa birinchi razryad tarif stavkasini qolgan razryadlar tarif koeffitsiyentiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Fermer xo'jaliklarida ish haqining asosan ishbay va vaqtbay shakllari qo'llaniladi. Ish haqining ishbay shaklida mehnatga haq ishbay narx asosida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va sifatiga muvofiq to'lanadi. Narx- bu bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish uchun to'lanadigan ish haqi summasidir. Amalda ishbay ish haqi shaklining oddiy, mukofot va akkord tizimlari qo'llaniladi.

Oddiy ishbay shaklida ishlab chiqarilgan mahsulot sonini ishbay narxiga ko'paytirish yo'li bilan ish haqi miqdori aniqlanadi.

Ishbay-mukofot shaklida xodim asosiy ish haqidan tashqari ma'lum ishlab chiqarish yutuqlariga erishganligi uchun mukofot oladi. Masalan, ishlab chiqarishda xom-ashyo, material va boshqa moddiy boyliklar tejab-tergab sarflanganligi, ishlab chiqarish rejasini oshirib bajarilganligi va h.k. Ishbay ish haqi shaklining ushbu tizimi amalda keng qo'llaniladi.

Ishbay akkord shaklida ish haqi summasi ishlab chiqarilishi lozim bo'lgan mahsulot yoki bajarilishi lozim bo'lgan ish uchun belgilanadi. Akkord shaklining afzalliklaridan biri shundaki, unda bajarilgan jami ishning hajmi yoki olingan mahsulot uchun haq to'lanadi. Bu esa mehnatni me'yorlashni va ish haqi bo'yicha hisob kitob ishlarini bir muncha yengillashtiradi. Ishbay akkord tizimi asosan mavsumiy ishlarni hamda ayrim buyurtmalarni bajarishda qo'llaniladi.

Ish haqining vaqtbay shaklida mehnatga haq xodimning ishlagan vaqti va malakasiga qarab to'lanadi. Amalda vaqtbay ish haqining oddiy va mukofot shakllari qo'llaniladi.

Oddiy vaqtbay shaklida fermer xo'jaliklari xodimlar haqiqatan ishlagan vaqtiga qarab belgilangan maosh asosida haq olishadi. Vaqtbay ish haqi oluvchi xodimlar mehnatiga haq ularning ishlagan vaqti va tarif stavkalari asosida aniqlanadi. Vaqtbay-mukofot shaklida asosiy ish haqidan tashqari mukofot ham to'lanadi.

Fermer xo'jaliklari mehnat va unga haq to'lash bo'yicha masalalarni mustaqil ravishda o'zlari hal qiladilar. Fermer xo'jaliklari rahbari tasdiqlangan mehnatga haq to'lash fondi doirasida kasaba uyushmasi tashkiloti bilan kelishgan holda xodimlarning ayrim guruhi uchun mehnatga haq to'lashning ishbay, vaqtbay yoki

akkord shakllarini belgilashi hamda xodimlarni mukofotlash uchun mukofotlash shartlari hamda ko'rsatkichlarini aniqlab olishi mumkin.

Amaldagi tarif-malaka ma'lumotnomasiga muvofiq fermer xo'jaliklari xodimlarga razryad belgilash, ishlab chiqarish me'yorlarini qarab chikish va yangilarini tasdiqlashi mumkin. Undan tashqari, fermer xo'jaliklari rahbari yuqori malakali xodimlarning oylik ish haqiga qo'shimcha belgilay oladi, shtatlar, maosh, ma'muriy boshqaruv xarajatlari smetasini tasdiqlaydi.

Fermer xo'jaliklarida mehnatga haq to'lash fondini rejalashtirish tartibini o'zgartirish bilan bir qatorda mehnatga haq to'lashning ilg'or shakllarini qo'llashga, mehnatga haq to'lashning rag'batlantirish rolini kuchaytirishga, erishilgan yuqori natijalardan moddiy manfaatdorlikni oshirishga alohida etibor berilishi lozim.

Ish haqi o'z tarkibiga ko'ra ikkiga bo'linadi: asosiy va qo'shimcha.

Asosiy ish haqi deyilganda fermer xo'jaliklari xodimlarining ishlagan vaqti uchun to'lanadigan haq tushuniladi. Masalan vaqtbay va ishbay haqning barcha turlari, mehnat sharoitining o'zgarganligi uchun to'lanadigan qo'shimcha haq uchun to'lanadigan haq va boshqalar nazarda tutiladi.

Qo'shimcha ish haqi deb xodimlarning ishlamagan vaqti uchun amaldagi qonun-qoidalariga muvofiq to'lanadigan haqga aytiladi. Masalan, mehnat ta'tili uchun, yoshi 18 ga yetmagan o'smirlarning ishlamagan soati uchun, davlat, jamoa ishlari bilan band bo'lingani uchun to'lanadigan haq va boshqalar.

Fermer xo'jaliklari xodimlarining asosiy va qo'shimcha mehnat haqlari hamda ro'yxatda bo'lmagan xodimlar mehnat haqi summasi mehnatga haq to'lash fondini tashkil qiladi. Unga quyidagilar kiradi:

- fermer xo'jaliklarida mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq hisoblangan mehnat haqi;
- mehnat haqi ko'rinishida berilgan mahsulot qiymati;
- tarif stavkalari va okladlariga qo'shimchalar;
- mukofotlar;

- fermer xo'jaliklari shtatida bo'lmagan xodimlar mehnatiga haq;
- mehnat ta'tiliga to'lanadigan haq va boshqalar.

Fermer xo'jaliklari pul to'lovlari va rag'batlantirishlariga quyidagilar kiradi:

- yillik ish yakunlari bo'yicha rag'batlantirish;
- ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarganligi uchun rag'batlantirish;
- fermer xo'jaliklaridan o'qishga yuborilgan talabalarga stipendiya;
- davolanish uchun beriladigan yo'llanmalar qiymati va boshqalar.

Fermer xo'jaliklari xodimlarning o'rtacha mehnat haqi. Fermer xo'jaliklari xodimlari o'rtacha ish haqiga korxonalarda mehnatga haq to'lash fondi tarkibiga kiritiladigan jami to'lovlar kiradi. Faqat fermer xo'jaliklari shtatida bo'lmagan xodimlar mehnatiga to'lanadigan haq kiritilmaydi. O'rtacha mehnat haqiga pul to'lovlari va rag'batlantirishlardan tashqari yil natijalari bo'yicha rag'batlantirish hamda ishlab chiqarish topshirig'ini bajarganligi uchun mukofotlar ham kiradi. Fermer xo'jaliklari xodimlari o'rtacha daromadiga o'rtacha ish haqiga kiritiladigan summalardan tashqari yana moddiy yordam, mehnat faxriylari nafaqaga ketayotgan vaqtlarida to'lanadigan mukofot, talabalar stipendiyasi, korxonalar xodimlariga beriladigan yengilliklar, davolanish uchun beriladigan yo'llanmalar va boshqalar kiradi.

Fermer xo'jaliklarida mehnatga haq to'lash fondini tarkibiga kirmaydigan to'lovlarga quyidagilar kiradi:

- tadqiqot va rasionalizotirlik takliflari uchun rag'batlantirish;
- xizmat safari xarajatlari;
- vaqtincha mehnat qobilyatini yo'qotganligi uchun nafaqa;
- maxsus kiyim, poyabzal qiymati;
- o'quv muassasalari, bolalar internatlariga ko'rsatiladigan yordam;
- madaniy-ommaviy tadbirlarini olib borish uchun ijaraga olingan bino ijarahaqi;
- profilakreditoriy, dam olish uylari, pansionatlar xarajatlari;
- kutubxonalar, tibbiyot punkrediti, muzeylar bilan bog'liq xarajatlar.

3.2. Mehnat haqini dastlabki, analitik va sintetik hisobini tashkil etish

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi mulkchilikning turli shakllari paydo bo'lishiga, natijada yangicha xo'jalik yuritish tizimlari paydo bo'lishiga olib keldi. Bunday sharoitda fermer xo'jaliklari moliyaviy resurslari va ularning ishlatilishini belgilab beruvchi buxgalteriya hisobining uslubi yangi sharoitga moslashishi talab etiladi. Fermer xo'jaliklari endilikda nafaqat o'zining ichki omillarini, balki tashqi omillarni ham inobatga olishi zarurdir. Shuni ham unutmaslik kerakki, bugungi kunda fermer xo'jaliklari haqidagi ma'lumotlar faqat uning o'zinigina emas, balki u bilan aloqador barcha jismoniy va huquqiy shaxslarni ham qiziqtiradi. Oldingi paragraflarda aytib o'tganimizdek buxgalteriya hisobi ikkiga, ya'ni moliyaviy va boshqaruv hisobiga bo'linadi. Buxgalteriya hisobi ayrim sohalari bo'yicha vazifalarni aniqlashda ana shu bo'linish albatta inobatga olinishi kerak, deb hisoblaymiz. Xo'sh, mehnat va unga haq to'lash hisobi qaysi buxgalteriyaga tegishli, moliyaviy yoki boshqaruv yoki? Uning oldida qanday vazifalar turibdi? Mana shu savollarga javob berishimiz uchun avvalom bor buxgalteriya hisobining umumiy vazifalarini eslashimiz kerak. Ma'lumki, buxgalteriya hisobining maqsadi va vazifalari foydalanuvchilarni axborot bilan ta'minlashdir. Mehnat va unga haq to'lash haqidagi ma'lumotlar Respublikamizda belgilangan moliyaviy hisobot uchun ham ma'lum bir axborotlarni takdim etadi. Misol uchun, fermer xo'jaliklarida ishlovchilarning o'rtacha yillik soni, ish haqi fondi, o'rtacha ish haqi summasi, ijtimoiy fondlarga ajratmalar va ular bo'yicha fermer xo'jaliklarining qarzi, ish haqidan ushlab qolingan daromad solig'i va ular bo'yicha hisob-kitoblar kabilar haqida ma'lumotlar beriladi.

Fermer xo'jaliklarini boshqarish nuqtai nazaridan esa fermer xo'jaliklari xodimlari soni, tarkibi, mehnat unumdorligi, ish haqi va ish haqi fondi, ish haqiga nisbatan ajratmalar, ularning ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga mos kelishi yoki kelmasligi, mehnat va ish haqi bo'yicha unumsiz xarajatlar, asosiy ishlab chiqarish xodimlari va ma'muriy boshqaruv xodimlari bo'yicha ish haqi xarajatlari

kabi ma'lumotlar darkor. Ana shulardan kelib chiqqan holda mehnat va unga haq to'lashni hisobga olishning quyidagi vazifalarini belgilashimiz mumkin:

1. Ish vaqtining to'g'ri sarflanishi ustidan nazorat olib borish;
2. Sarflangan mehnat yoki ishlab chiqarilgan mahsulotni tegishli hujjatlarda o'z vaqtida va to'g'ri aks ettirish;
3. Hisoblangan ish haqini kalkulyasiya obyektlari o'rtasida to'g'ri taqsimlash;
4. Mehnat va unga haq to'lashning ilg'or usullarini amalda qo'llash;
5. Mehnatga haq to'lash fondining to'g'ri sarflanishi ustidan nazorat olib borish;
6. Mehnat va unga haq to'lash bo'yicha ma'lumotlarni moliyaviy hisobot va xo'jalik rahbariyati uchun o'z vaqtida umumlashtirish va taqdim etish.

Fermer xo'jaliklarida mehnat va unga haq to'lashning dastlabki hisobi bo'yicha quyidagi buxgalteriya hujjatlari rasmiylashtiriladi:

1. Mehnatga haq to'lashning **vaqtbay** shaklida ishlagan vaqtlari uchun «Ish vaqtini hisobga olish tabeli» rasmiylashtiriladi. Tabelda xodimlarning oy davomida ishlagan kunlaridagi ishlagan soatlari har kuniga yozib boriladi. Ishlamagan kunlar uchun esa tegishli, Misol uchun, dam olish kunlariga «Ya», bayram kunlariga «B» belgilar qo'yiladi.

2. Mehnatga haq to'lashning **ishbay** shaklida ishlagan vaqtlari uchun «Mehnat va bajarilgan ishlarni hisobga olish varaqasi» rasmiylashtiriladi. Ushbu hujjatda xodimlarning bajargan ish hajmi, ishlagan soatlari, kunlari, razryadi va boshqa ko'rsatkichlar aks ettiriladi.

3. Fermer xo'jaliklarida transport vositalarida ish bajaradigan traktorist-mashinstlar bajargan ishlar uchun «Traktorist-mashinstning hisob varaqasi» yoki «Traktorning yo'l varaqasi» rasmiylashtiriladi.

Shuningdek, chorvachilik tarmog'ida band bo'lgan xodimlarning bajargan ish hajmi, ishlagan soatlari uchun «Chorvachilik tarmog'ida band bo'lgan xodimlarga mehnat haqi hisoblash hisob-kitobi», qurilish va ta'mirlash ishlarida

band bo'lgan xodimlarning bajargan ish hajmi, ishlagan soatlari uchun «Ishbay ish uchun naryad» rasmiylashtiriladi. Mehnat va ish haqini hisoblash bo'yicha rasmiylashtiriladigan boshlang'ich hujjatlar belgilangan muddatda buxgalteriyaning mehnat haqini hisoblash bo'limiga topshiriladi. Boshlang'ich hujjatlar buxgalteriya xodimlari tomonidan tekshiriladi, so'ngra qayta ishlanadi.

Fermer xo'jaliklarida mehnat va unga haq to'lashning dastlabki hisobi bo'yicha rasmiylashtiriladigan hujjatlar asosida fermer xo'jaliklari xodimlariga mehnat haqi amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida fermer xo'jaliklarida qabul qilingan qoidalarga asosan hisoblanadi. Hisoblangan mehnat haqi fermer xo'jaliklari buxgalteriyasida yuritiladigan «Mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar daftari»da aks ettirilib boriladi. «Mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar daftari»ga asosan fermer xo'jaligi buxgalteri «To'lov qaydnomasi» tuzadi. «To'lov qaydnomasi»ga fermer xo'jaligi rahbari va buxgalteri imzo chekkandan so'ng, qaydnoma asosida xodimlarga fermer xo'jaligi kassasidan mehnat haqi beriladi.

Fermer xo'jaliklari ro'yxatida bo'lgan va ro'yxatida turmagan xodimlarga mehnatga haq to'lash (mehnat haqining hamma turlari, mukofotlar, ishlaydigan pensiya oluvchilarga hisoblangan pensiya va boshqa to'lovlar) bo'yicha joriy qarzlar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi balansga nisbatan passiv schyotlarda amalga oshiriladi:

6710 «Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar»

6720 «Deponentlangan ish haqi».

6710-«Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar» schyotining kredit tomonida mehnat haqi, ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar, pensiyalar va boshqa shu kabi summalar aks ettiriladi. 6710-«Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar» schyotining debet tomonida hisoblangan mehnat haqini to'lash va undan ushlanmalar aks ettiriladi.

Har yilgi va qo'shimcha ta'til bo'yicha summalarni hisoblashda ushbu summalar mehnat haqi jamg'armasiga joriy oyga to'g'ri keladigan ta'til kunlari summasi miqdorida kiritiladi. Ta'tilning bir qismi keyingi oyga o'tgan hollarda,

ushbu kunlar uchun xodimlarga to'langan summalar joriy oyda berilgan bo'nak summasi kabi aks ettiriladi va 4290-«Xodimlarga berilgan boshqa bo'naklar» schyotining debetida va 5010-«Milliy valyutadagi pul mablag'lari» schyotining kreditida ko'rsatiladi.

6720-«Deponentlangan ish haqi» schyotida xodimlarning olinmagan ish haqi bo'yicha qarzlari aks ettiriladi.

6710-«Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar» va 6720-«Deponentlangan ish haqi» schyotlari bo'yicha analitik hisob fermer xo'jaliklarining har bir xodimi bo'yicha alohida yuritiladi.

Bundan tashqari fermer xo'jaliklari xodimlariga mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar bo'yicha hisob-kitoblar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish balansga nisbatan aktiv schyot bo'lgan 4210-«Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar» schyotida amalga oshiriladi.

4210-«Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar» schyotida fermer xo'jaliklari xodimlariga mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklarning barcha turlari yuzasidan hisob-kitoblar hisobga olinadi. Bo'naklarning kelgusidagi mehnat haqi hisobiga berilishi xodimlarning sababi ko'rsatilgan arizasiga asosan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ushbu schyotda quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan aks ettiriladigan, ya'ni 6710-«Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyotining debeti va 4210-«Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar» schyotining kreditida mehnat haqi bo'yicha har oylik bo'naklar hisobga olinadi

3.2.1-jadval

6700 «Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schyotlar»ning korrespondensiyasi

T/r	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Kapital qo'yilmalar sohasida band bo'lgan xodimlarga mehnat haqi hisoblanganda	0810-0890	6710
2	Asosiy ishlab chiqarish (o'simlikchilik, chorvachilik), yordamchi ishlab chiqarish, umumishlab chiqarish ishchilariga mehnat haqi hisoblanganda	2010, 2310, 2510	6710
3	Mahsulot sotishda, boshqaruv va boshqa operatsiyalarda band bo'lgan xodimlarga mehnat haqi hisoblanganda	9410-9430	6710
4	Kelgusi davr xarajatlariga kiritiladigan ishlar uchun mehnat haqi hisoblanganda	3190	6710
5	Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish jarayonlarida ishtirok etganlarga mehnat haqi hisoblanganda	9210	6710
6	Ortiqcha to'langan summalar (mehnat haqi va hokazolar) kassaga qaytarildi	5010	6710
7	Tabiiy ofatlar, yong'inlarni bartaraf qilish bilan bog'liq bo'lgan ishchilarga mehnat haqi hisoblanganda	9720	6710
8	Xodimlarga bir martalik mukofot hisoblanganda	9430	6710
9	Mahsulot, ish, xizmatlar qiymati fermer xo'jaliklari ishchilaridan ushlab qolinganda	6710	4790
10	Xodimlarga hisoblangan summalar kassadan to'langanda (mehnat haqi, mukofotlar va hokazo)	6710	5010
11	Hisobdor shaxslarning qaytarmagan bo'nak summolari ushlab qolinganda	6710	4220
12	Kreditga sotib olingan tovarlar uchun hisob-kitoblar bo'yicha navbatdagi to'lovlar ishchilardan ushlab qolinganda	6710	4710
13	Aybdor ishchilarning mehnat haqi summasidan yetkazilgan moddiy zararlar summasi ushlab qolinganda	6710	4730
14	Fermer xo'jaliklari ishchilarining mehnat haqi summasidan daromad solig'i summasi ushlab qolinganda	6710	6410
15	Ishchilarining mehnat haqi summasidan nafaqa jamg'armasiga ushlab qolinganda	6710	6520
16	Mehnat haqi summasi deponentga o'tkazilganda	6710	6720
17	Ijro varaqalari asosida(aliment va boshqalar) mehnat haqidan ushlab qolinganda	6710	6990
18	Deponent summasi kassadan berilganda	6720	5010

3.2.2-jadval

4210 «Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar» schyotining korrespondensiyasi

T/r	Xo'jalik oprasiyalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Mehnat haqi hisobidan bo'nak berildi	4210	5010
2	Xodimlarga kelgusidagi mehnat haqi hisobiga berilgan bo'naklar ushlab qolindi	6710	4210

Shunday qilib, fermer xo'jaliklarida xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblar 6710-«Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar», 6720-«Deponentlangan ish haqi» va 4210-«Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar» schyotlarida yuritiladi. 6710-«Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar» schyotining kreditida hisoblangan ish haqi summasi ko'rsatilsa, debetida ish haqidan ushlab qolinadigan summalar aks ettiriladi. Bunda qoldiq kreditda bo'lib, bu fermer xo'jaliklarining xodimlardan qarzini bildiradi. Hisobot davri oxiriga aniqlangan saldo ya'ni qoldiq fermer xo'jaliklari majburiyati sifatida balansda alohida modda sifatida o'z aksini topadi.

Fermer xo'jaliklarida mehnat va unga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblarni olib borishda har bir hodimga alohida analitik schet ochilib, ushbu analitik schetlarda xodimlarga hisoblangan mehnat haqi, mukofotlar va boshqa to'lovlar, mehnat haqidan ushlab qolingani soliqlar, ushlanmalar summasi alohida hisobga olib boriladi.

3.3. Mehnatga haq to'lash fondidan foydalanishni va mehnat unumdorligini tahlil qilishni tashkil etish

Mamlakat taraqqiyotining asosiy g'oyalaridan biri vatan ravnaqi, xalq farovonligini sifat jihatdan yangi pog'onalarga ko'tarishdan iboratdir. Ish haqi tizimini doimo shunday takomillashtirib borish kerakki, toki u mehnatning miqdori va sifatiga qarab haq to'lash tamoyiliga mos tushsin, uning sharoiti va natijalarini hisobga olsin, xodimlar malakasini, mehnat unumdorligini oshirishni, mahsulot sifatini yaxshilashni, barcha resurslardan oqilona foydalanishni va ularning tejalganligini rag'batlantirsin.

Ana shuni hisobga olib hozir fermer xo'jaliklarida ishlovchilarning mehnat haqini ko'zda tutilayotgan darajada oshirish asosan fermer xo'jaliklarining o'zlari topgan mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jadalroq ta'sir ko'rsatadi.

Fermer xo'jaliklarida mehnatga haq to'lash fondi – yalpi ichki mahsulotning ishlovchilar o'rtasida ular mehnatining miqdor va sifatiga muvofiq taqsimlanadigan hamda shaxsiy iste'mollari uchun foydalaniladigan qismidir.

Mehnatga haq to'lash fondi – mehnat bo'yicha biznes-rejaning asosiy ko'rsatkichlaridan biri: fermer xo'jaliklarini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning istiqbolli va yillik rejasida ko'zda tutiladi.

Mehnatga haq to'lash fondiga hamma xodimlarga (doimiy, mavsumiy, vaqtincha ishlaydigan xodimlarga) bajarilgan ishi uchun to'plangan pul summolari, shuningdek, amaldagi qonunlarga muvofiq xodimlarga ishlamagan vaqtlari (emizikli onalar ishidagi uzilish uchun to'lash va boshqalar) uchun to'langan ish haqi summasi ham qo'shiladi. Mehnatga haq to'lash fondidan tarif stavkalari va mansab okladlari bo'yicha haq to'lash, ishbay mehnatga haq to'lash, ishchilarga mukofotlar to'lash, og'ir va zararli mahsulot sharoitlari uchun, kasb mahorati uchun bir necha kasblarni qo'shib bajarganliklari va xizmat ko'rsatish zonalarini kengaytirganligi uchun qo'shimcha va ustama haqlar beriladi, navbatdagi va qo'shimcha ta'tillar uchun haq to'lanadi, ko'p yil ishlagani uchun bir yo'la

taqdirlash uchun va x.k. Korxona mehnat jamoasiga mehnat natijalari uchun barcha to'lovlarning yagona manbai-mehnatga haq to'lash fondi hisoblanadi. Mehnatga haq to'lash fondi bir paytlar ish haqi fondi va moddiy rag'batlantirish fondi o'rniga tashkil etilgan. Hozir ham bu fond shu mazmunda saqlanib qolgan. Tahlilning asosiy vazifasi mahnatga haq to'lash fondini mutloq miqdorini tobora ko'paytirish va nisbiy ulushini kamaytirib borish imkoniyatlarini aniqlash hisoblanadi. zero, ish haqi tannarxida tutgan salmog'i jihatdan yuqori bo'lib, uni qisqartirish tannarxining kamayishiga, bu esa o'z navbatida, foyda va rentabellik darajasining oshirilishiga olib keladi.

Tahlil uchun ma'lumotlar yillik hisobotning 1-t sonli korxonalarning «Mehnat to'g'risidagi hisobot» nomli shaklidan olinadi. Fermer xo'jaliklarida esa tahlil uchun ma'lumotlar statistik hisobot hisoblangan 1-sonli "Fermer" hisobotidan olinadi. Tahlilning dastlabki bosqichi asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarining va ular toifalarining mehnatga haq to'lash fondini o'tgan yildagi mehnatga haq to'lash fondi bilan taqqoslab mutlaq farqni aniqlashdan boshlanadi.

Kattaqo'rg'on tumanidagi "Sardor" fermer xo'jaligida ishlovchi xodimlarning mehnat haqi fondini, xodimlarning kategoriyalari bo'yicha tahlili qo'yidagicha amalga oshirildi (3.3.1-jadval).

3.3.1 - jadval

Kattaqo'rg'on tumani "Sardor" fermer xo'jaligida asosiy faoliyatda ishlovchilarning mehnatga haq to'lash fondi tahlili (ming so'm)*

Ko'rsatkichlar	Haqiqatda		Farqi	
	2012 yil	2013 yil	+/-	%
Asosiy faoliyatda ishlovchilar-ning yillik mehnatiga haq to'lash fondi, jami,shu jumladan:	162155,0	184850,0	+22695,0	+14,0
Ishchilar	144596,4	164949,5	+20353,1	+14,1
Rahbarlar	4585,5	5008,5	+423,0	+9,2
Mutaxassislar	12973,1	14892,0	+1918,9	+14,8

***Manba:** "Sardor" fermer xo'jaligining 2012-2013 yillar hisobot ma'lumotlari.

3.3.1-jadvaldan ko'rinishicha, asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarining mehnatga haq to'lash fondi 2013 yili 2012 yilga nisbatan 22695 ming so'm yoki 14,0 foizga oshgan. Ushbu mutlaq o'sish asosan ishchilarning ish haqi fondining o'sish evaziga sodir bo'lgan. Lekin, mutlaq farqga qarab asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarining ish haqi fondidan foydalanishga baho berib bo'lmaydi. Shuning uchun ushbu xodimlarning ish haqi fondi bo'yicha nisbiy farqni aniqlash kerak. Asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarining ish haqi fondi bo'yicha mutlaq va nisbiy farqni quyidagi 3.3.2-jadval asosida aniqlaymiz.

3.3.2 - jadval

Asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarining ish haqi fondi bo'yicha mutlaq va nisbiy farqni aniqlash

Ko'rsatkichlar	Summasi, ming so'm
1.Asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarning ish haqi fondi	
- asos davrida	144596,4
- haqiqatda	164949,5
- mutlaq farq (+,-)	+20353,1
2. Tovar mahsuloti hajmining 2012 yilga nisbatan qo'shimcha o'sish sur'ati foiz	12,1
3. Ish haqi fondining qo'shimcha o'sishiga berilgan normativ koeffitsiyenti 0,8 foiz	0,8
4. Normativ bo'yicha hisoblangan ish haqi fondi.	155385,0
5. Nisbiy tejam(-) (ortiqcha xarajat(+)) $164949.5 - 155385.0$	+9564,5

3.3.2-jadvaldan ko'rinishicha, tovar mahsuloti hajmining o'sish sur'atini hisobga olmagan holda ish haqi fondi bo'yicha 20353,1 ming so'm mutlaq ortiqcha xarajatga yo'l qo'yilgan. Tovar mahsuloti hajmining o'sish sur'atini (12.1 foiz) hisobiga olganda esa, ortiqcha xarajat 9564,5 ming so'mni tashkil etdi. Bu esa korxonaning mehnat resurslaridan oqilona foydalanmaganligidan dalolat beradi.

Mehnatga haq to'lash vositasiga ta'sir qiluvchi omillarni mutlaq farq usuli orqali ham aniqlash mumkin. Bunda mehnatga haq to'lash vositaining o'zgarishiga ikki omil ta'sir ko'rsatadi:

- 1) Ishlovchi xodimlar soni;

2) Xodimlarning o'rtacha yillik ish haqi.

Birinchi omilning ta'sirini aniqlash uchun xodimlar sonida bo'lgan farqni xodimlarning o'tgan yildagi o'rtacha yillik ish haqi miqdoriga ko'paytiriladi.

Ikkinchi omilning ta'sirini aniqlash uchun xodimlarning o'rtacha yillik ish haqida bo'lgan farqni xodimlarning o'tgan yildagi ro'yxatidagi o'rtacha soniga ko'paytiriladi.

Demak, ish haqi fondini tahlil qilish uchun boshqaruv tahlilida qo'llaniladigan juda ko'p an'anaviy usullardan foydalanish mumkin ekan.

Mehnat unumdorligi vaqt birligi (soat, smena, oy, chorak, yil) ichida bitta xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki bir mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarf qilingan vaqt birligi bilan o'lchanadi.

Mahsulot hajmini muttasil oshirish va shu asosda xalqning turmush farovonligini oshirishdagi muhim omil – mehnat unumdorligini beto'xtov oshirishdir. Hukumatimizning qarorlarida ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishda mehnat unumdorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi chuqur ilmiy tarzda tahlil qilib berilgan.

Mehnat unumdorligini oshirish yo'llari ko'p qirralidir. Bu ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va mexanizasiyalashtirish, yangi mashina va texnologiyalarni joriy qilish, ishlayotgan dastgohlarni zamonaviylashtirish, dastgohlardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishda mehnatni ilmiy tarzda tashkil etishni yaxshilash, ish vaqtidagi yo'qotishlarni tugatish, ilg'or ishlab chiqarish tajribalaridan foydalanish, mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish tizimini to'g'ri tashkil qilish va h.k.lar.

Mehnat unumdorligini hisoblashda quyidagi uchta ko'rsatkichni qo'llash mumkin:

1. Natural ko'rsatkichlar.
2. Shartli-natural ko'rsatkichlar.
3. Pul (qiymat) ko'rsatkichlar.

Natural ko'rsatkichlar bir xil mahsulot ishlab chiqaradigan (tonna, metr, dona va x.k.) korxonalarda qo'llaniladi. Masalan, neft qazib chiqarish natural holda massa yoki hajm birliklarida. Yalpi don hosili tonna yoki sentnerlarda, paxta yetishtirish sentnerda, yengil avtomobillar ishlab chiqarish donalarda o'lchanadi va hokazo. Keyingi yillarda mahsulot natural o'lchovlarini takomillashtirish yuzasidan ancha ishlar qilindi. Masalan, xom ashyodan yaxshiroq foydalanish maqsadida qog'oz ishlab chiqarish tarmog'ida qog'oz ishlab chiqarish oldingidek tonnalarida emas, balki kvadrat metrlarda o'lchanadi. Natural ko'rsatkichlar hozirgi bozor munosabatlari sharoitida xo'jalik mexanizmining eng zarur elementidir.

Shartli-natural ko'rsatkichlar turli xil mahsulotlarni yagona o'lchovga keltirishga asoslangan. Masalan, 15 ot kuchi birligiga keltirib hisoblangan traktorlar, shartli bankada ishlab chiqarilgan konserva mahsulotlari, dinometrdagi o'lchamda ifodalanadigan ichimliklar va h.k.

Qiymat ko'rsatkichlari turli xil mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarda qo'llaniladi. Qiymat ko'rsatkichlari korxona va birlashmalar ishini baholashda, xo'jalik hisobi va moddiy rag'batlantirishda, ishlab chiqarish samaradorligini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Qiymat ifodasida korxonalarining ishlab chiqargan mahsulot hajmi belgilanadi, mahsulot tannarxi va mahsulot qiymatidagi foyda o'rtasidagi o'zaro nisbatlar aniqlanadi. Mehnat unumdorligi, vosita samaradorligi va mahsulotga material sarfi qiymat ifodasida belgilanadi. Realizasiya qilingan tovarlar va sof mahsulotlar ham qiymat ko'rsatkichlarida hisoblanadi. Qiymat ko'rsatkichini qo'llashda ikki shartni hisobga olish kerak: mahsulotga qo'yilgan baho va uning assortimenti o'zgarmasligi.

Mehnat unumdorligi moddiy ishlab chiqarishda vaqt birligi davomida hosil qilingan mahsulot miqdori bilan o'lchanadi. Bunda individual yakka tartibda ishlovchining (lokal) uchastka, sexdagi, korxona, tarmoqdagi va barcha iqtisodiyot ko'lamidagi mehnat unumdorligi farqlanadi. Ijtimoiy mehnat unumdorligi moddiy ishlab chiqarishda band bo'lgan har bir ishlovchi hisobiga hosil qilingan yalpi ichki mahsulot miqdori bilan o'lchanadi. Fermer xo'jaliklarida mehnat

unumdorligining darajasi tovar mahsulotining hajmini ishlab chiqarish xodimlarining soniga nisbati bilan aniqlanadi.

Mehnat unumdorligini tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik hisobotning 1-t sonli «Mehnat to'g'risida hisobot» shaklidan olinadi. Ushbu shaklda – mahsulot hajmi, bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi, hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan ish kunlari va ish soatlari berildi. Bu ko'rsatkichlarga binoan bir ishchi tomonidan o'rtacha bir yilda ishlangan kishi kunlarini, ish kunining o'rtacha uzunligini va bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha kunlik va soatlik ish unumini aniqlash mumkin.

Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirib borishda, mehnat haqi tizimini doimo shunday takomillashtirib borish kerakki, toki u mehnatning miqdori va sifatiga qarab haq to'lash tamoyiliga mos tushsin, uning sharoiti va natijalarini hisobga olsin, xodimlar malakasini, mehnat unumdorligini oshirishni, mahsulot sifatini yaxshilashni, barcha resurslardan oqilona foydalanishni va ularning tejalganligini rag'batlantirsin. Ushbu vazifalarni hal etish bevosita mehnat haqi va mehnat haqi fondini tahlil qilish asosida olinadigan va korxona boshqaruvchilarga taqdim etiladigan ahborotlar sifatiga bog'liq. Shuning uchun tahlilning asosiy vazifasi mahnatga haq to'lash fondini mutloq miqdorini tobora ko'paytirish va nisbiy ulushini kamaytirib borish imkoniyatlarini aniqlash hisoblanadi. Zero, mehnat haqi tannarxda tutgan salmog'i jihatdan yuqori bo'lib, uni qisqartirish tannarxining kamayishiga, bu esa o'z navbatida, foyda va rentabellik darajasining oshirilishiga olib keladi.

Fermer xo'jaliklarida, mehnat haqi va mehnat haqi fondini tahlili uchun ma'lumotlar statistik hisobotning 1-t sonli «Mehnat to'g'risidagi hisobot» nomli shaklidan olinadi. Bundan tashqari buxgalteriya hisobining dastlabki va hisob ma'lumotlaridan foydalaniladi. Tahlilning dastlabki bosqichi asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarining va ular toifalarining mehnatga haq to'lash fondini o'tgan yildagi mehnatga haq to'lash fondi bilan taqqoslab mutlaq farqni aniqlashdan

boshlanadi.

Mehnatga haq to'lashga ta'sir qiluvchi omillarni mutlaq farq usuli orqali aniqlash mumkin. Bunda mehnatga haq to'lash vositasining o'zgarishiga ikki omil ta'sir ko'rsatadi:

- 1) ishlovchi xodimlar soni;
- 2) xodimlarning o'rtacha yillik mehnat haqi.

Birinchi omilning ta'sirini aniqlash uchun xodimlar sonida bo'lgan farqni xodimlarning o'tgan yildagi o'rtacha yillik mehnat haqi miqdoriga ko'paytiriladi.

Ikkinchi omilning ta'sirini aniqlash uchun xodimlarning o'rtacha yillik mehnat haqida bo'lgan farqni xodimlarning o'tgan yildagi ro'yxatidagi o'rtacha soniga ko'paytiriladi.

Demak, mehnat haqi va mehnat haqi fondini tahlil qilish uchun boshqaruv tahlilida qo'llaniladigan juda ko'p an'anaviy usullardan foydalanish mumkin, ularni keyingi boblarda ko'rib chiqamiz.

4. FERMER XO'JALIKLARIDA MEHNATGA HAQ TO'LASH VA MEHNAT UNUMDORLIGI TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH

4.1. Fermer xo'jaliklarida mehnat haqi va mehnat haqi fondi tahlil qilishni takomillashtirish

Kattaqo'rg'on tumanidagi «Sardor» fermer xo'jaligi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaradi va davlatga hamda boshqa xaridorlarga sotadi. Fermer xo'jaligida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda asosiy o'rinni jonli mehnat omili, ya'ni inson omili muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday fan-texnika taraqqiyotining rivojlangan bosqichida ham inson omilining bo'lishi talab etiladi. Ya'ni, yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish vositalarini ham inson boshqarishi lozim bo'ladi. Bunday sharoitda fermer xo'jaliklarining mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini o'rganib borish muhim ahamiyat kasb etsada, ularga to'lanadigan mehnat haqining darajasi ham katta rol o'ynaydi.

Fermer xo'jaligida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmining oshishiga, ular tannarxining pasayishiga, foyda miqdorining oshishiga hamda boshqa bir qator texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarining yaxshilanishi fermer xo'jaliklarida mehnat haqi tahlilini tashkil etilishi va olingan axborotlardan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish darajasiga bog'liq. Mehnat va mehnat haqi ko'rsatkichlarining bajarilish darajasi fermer xo'jaliklari ichki imkoniyatlaridan maksimal foydalanishga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmini oshirishga va mehnat unumdorligini o'sishiga ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda fermer xo'jaligi haqli ravishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining yetakchi bo'g'iniga, uni tashkil etishning asosiy shakliga aylandi. Hozirgi vaqtda fermerlik harakati o'z tarkibida 66 mingdan ziyod fermer xo'jaligini birlashtirmoqda. Mamlakatimizdagi jami haydaladigan yerlarning 85 foizdan ortig'i, etishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismi aynan fermerlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shuningdek, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida, fermer xo'jaliklarida mehnat haqini oshirish, qishloq aholisi turmush farovonligini ko'tarish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda

mehnat resurslaridan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Mehnat ko'rsatkichlari tarkibiga odatda quyidagilar kiradi:

- Ish haqi fondi;
- Xodimlar soni;
- Mehnat unumdorligi;
- O'rtacha yillik ish haqi.

Moddiy ishlab chiqarishda mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlar quyidagilardir:

1. Mehnat unumdorligini o'sish darajasi.
2. Mehnat unumdorligi hisobiga mahsulot hajmini o'sishi.
3. Xodimlar sonini nisbiy kamayishi.
4. Mehnat haqi fondidan nisbiy iqtisod.
5. Mehnat unumdorligi o'sish darajasini mehnat haqini o'sish darajasiga nisbati.

Mehnat haqini tahlil etish orqali fermer xo'jaliklarini mehnat resurslari bilan ta'minlanishi va ulardan foydalanish, ularning tarkibi, kasbiy mahorati, xodimlarni malakasini oshirish, ish vaqtidan foydalanish, mehnat haqining o'rtacha oylik miqdori ko'rsatkichlariga baho beriladi. Ayniqsa, bunda mehnat haqining oshirilishida mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlariga ko'proq e'tibor beriladi. Mehnat va unga haq to'lashni tahlil etishdan maqsad, mehnat unumdorligini oshirish rezervlari hisobiga mahsulot hajmini o'sishini, ish vaqtidan to'liq foydalanish va boshqa omillar evaziga mahsulot tannarxini pasaytirishdan iboratdir.

Bugungi sharoitida fermer xo'jaliklarining mehnat haqi va mehnat fondidan foydalanishni o'rganishda tahlilning asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Fermer xo'jaliklarining mehnat resurslari bilan ta'minlanishi, ularning tarkibi, strukturasi o'zgarishini mehnat unumdorligiga bo'lgan ta'sirini hisoblash va baho berish;
2. Ish vaqtini yo'qotish sabablarini aniqlash va unga baho berish;

3. Mehnat haqini oshirib borish rejasining bajarilishi va dinamikasiga obyektiv baho berish;

4. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash;

5. Xodimlar qo'nimsizligiga baho berish;

6. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga mehnat haqini oshishining ta'sir etuvchi omillarini aniqlash va ularga baho berish;

7. Bir xodimning mehnat unumdorligini aniqlash va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarga baho berish;

8. Ish vaqtidan foydalanish va bir soatlik ish unumdorligini o'zgarishini mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini o'rganish va hokozolar.

Fermer xo'jaliklarida mehnat haqi va mehnat haqi fondini tahlilining asosiy axborot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- biznes reja ma'lumotlari;
- mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlarini aks ettirgan 1-son shaklidagi "Fermer" statistik hisobot shakli ma'lumotlari;
- mehnat haqini hisobi yuritiladigan hisob registrlari va hisobotlari;
- ish vaqtidan foydalanish, ish vaqti balansi to'g'risidagi hisobot, ishga kelish, ketish to'g'risidagi tabel, ishlab chiqarish normasini bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotnoma va boshqa ma'lumotlar.

Mehnati haqi fondi — bu xodimlarga mehnat haqi uchun hisoblangan va to'lanadigan jami pul mablag'laridir va bunga ta'sir etuvchi omillar esa quyidagilar hisoblanadi:

1. Xodimlar soni;
2. Ish vaqti fondi;
3. Mehnat haqi darajasi.

Mehnati haqi fondi ko'rsatkichini tahlil qilishda quyidagilarga ahamiyat beriladi:

a) mutloq farq - bu haqiqiy va hisob-kitobga ko'ra yoki o'tgan yillarga nisbatan mehnat haqi fondlari o'rtasidagi farq. "Sardor" fermer xo'jaligida mehnat resurslari

va mehnat haqi fondlari ko'rsatkichlarining 2011-2013 yillar davomida o'zgarish dinamikasini quyidagi 4.1.1-jadvalda berib o'tamiz.

4.1.1-jadval

"Sardor" fermer xo'jaligida mehnat haqi va mehnat haqi fondlari ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasi tahlili*

№	Ko'rsatkichlar nomi	Yillar			2013 yil 2011 yilga nisbatan o'zgarishi, %
		2011	2012	2013	
1	O'rtacha xodimlar soni, kishi	72	78	79	9,7
2	Mehnat haqi fondi, ming so'm	128960,0	162155,0	184850,0	43,3
3	Bir kishi hisobiga yillik ishlab chiqarilgan mahsulot, mln. so'm	3,586	3,648	3.856	7,5
4	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	149,3	173,2	195,0	30,6

***Manba:** «Sardor» fermer xo'jaligining 2011-2013 yillar ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi

Mehnat haqi fondiga ta'sir etuvchi omillar sifatida: xodimlar sonini, ish vaqti fondini va mehnat haqi darajasi kabi ko'rsatkichlarni sanab o'tgan edik.

4.1.1-jadvaldagi ma'lumotlar asosida «Sardor» fermer xo'jaligida 2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'tacha mehnat haqi 30.6 foizga oshgan, mehnat haqi fondi esa 43.3 foizga oshgan. Mehnat haqini oshishini mehnat unumdorligiga taqqoslaydigan bo'lsak, shu davrda mehnat unumdorligi 7,5 foizga oshgan, ya'ni mehnat haqi yuqoriroq o'sgan. Bunday holat fermer xo'jaligida ishlab chiqarish hajmini, ya'ni «Sardor» fermer xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish hajmi mehnat unumdorligida pastroq sur'atda bo'lgan.

Mehnat haqi fondiga ikki omil: ishlovchilarning o'rtacha soni va ishlovchilarning o'rtacha oylik mehnat haqi ta'sir qiladi. «Sardor» fermer xo'jaligida 2011-2013 yillarda mehnat haqi fondini tahlil qilganimizda, ushbu omillarning ta'siri quyidagicha bo'lgan (4.1.2-jadval).

4.1.2-jadval

«Sardor» fermer xo'jaligida mehnat haqi fondining tahlili*

№	Ko'rsatkichlar nomi	2011	2012	2013	2013 yil 2011 yilga nisbatan o'zgarishi
1	O'rtacha xodimlar soni, kishi	72	78	79	7
2	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	149,3	173,2	195,0	45,7
3	Mehnat haqi fondi, ming so'm	128960,0	162155,0	184850,0	55890,0
4	Mehnat haqi fondini o'zgarishi:				
	a) xodilar soni hisobiga	-	-	-	55890,0
	b) mehnat haqi hisobiga	-	-	-	43313,6
					12576,4

*Manba: «Sardor» fermer xo'jaligining 2011-2013 yillar ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi

4.1.2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2013 yilda 2011 yilga nisbatan mehnat haqi fondi 55890,0 ming so'mga oshgan. Ushbu mehnat haqi fondini o'zgarishiga xodilar sonining o'zgarishi va bir ishlovchiga to'g'ri keladigan mehnat haqining o'zgarishi ta'sirini aniqlaymiz.

Buning uchun shartli mehnat haqi fondini aniqlaymiz, bunda 2011 yildagi bir xodimga o'rtacha oylik mehnat haqini 2013 yildagi xodimlar soniga ko'paytiramiz, hosil bo'lgan summa bir oylik mehnat haqi fondi bo'lgani uchun ushbu summani o'n ikki(yil oylari soni)ga ko'paytiramiz:

$$(79 * 149,3) * 12 = 141536,4 \text{ ming so'm}$$

Xodimlar sonining o'zgarishini mehnat haqi fondiga ta'sirini aniqlaymiz:

$$184850,0 - 141536,4 = 43313,6 \text{ ming so'm}$$

Demak, fermer xo'jaligida xodimlar sonining 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 7 kishiga ko'payishi, mehnat haqi fondini 43313,6 ming so'mga oshishiga olib kelgan.

Endi, bir ishlovchiga to'g'ri keladigan mehnat haqining o'zgarishini mehnat haqi fondiga tahsirini aniqlaymiz:

$$141536,4 - 128960,0 = 12576,4 \text{ ming so'm}$$

Demak, fermer xo'jaligida 2013 yilda 2011 yilga nisbatan bir xodimning o'rtacha oylik mehnat haqining 45,7 ming so'mga oshishi hisobiga mehnat haqi fondi 12576,4 ming so'mga oshgan.

Shunday qilib, «Sardor» fermer xo'jaligida 2011-2013 yillarda mehnat haqi fondini 43313,6 ming so'mi fermer xo'jaligida ishlovchilar sonini oshishi hisobiga oshgan bo'lsa, 12576,4 ming so'mi o'rtacha bir xodimga hisoblangan mehnat haqining oshishi hisobiga oshgan.

«Sardor» fermer xo'jaligida mehnat haqi va mehnat haqi fondini tahlil qilib, quyidagilarni taklif qilamiz:

- fermer xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va uni bajarilishini ta'minlash lozim. Bu fermer xo'jaligida mehnat haqini oshishini mehnat unumdorligini oshishiga mutanosibligini ta'minlashiga olib keladi;

- fermer xo'jaligida mehnat haqini tashkil etish va xodimlarga mehnat haqi hisoblash hamda ularga oylik maoshlari stavkasini belgilashda, xodimlarning fermer xo'jaligida ishlab chiqarishga qo'shayotgan hissasini, malakasini hisobga olish.

4.2. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish usullari

Mehnat unumdorligi – mehnat resurslaridan foydalanishning asosiy ko'rsatkichidir. Mehnat unumdorligi jonli mehnatning samarasi bo'lib hisoblanadi. Mehnat unumdorligi deganda aniq vaqt birligi (1 kishi-soat yoki 1 kishi-kuni) hisobiga yetishtirilgan mahsulot miqdori yoki bajarilgan ish hamda xizmat hajmi tushuniladi. Demak, 1 kishi-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot, ko'rsatilgan xizmat va bajarilgan ish miqdori mehnat unumdorligiga misol bo'ladi. Mehnat unumdorligi bevosita va bilvosita ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi.

Mehnat unumdorligining bevosita ko'rsatkichi bo'lib, aniq vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmat yoki bajarilgan ishlar miqdori va hajmi hisoblanadi.

Mehnat unumdorligining bevosita ko'rsatkichlari o'z navbatida uch turga bo'linadi:

1. Bir kishi-soat hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (V): Buni aniqlash uchun ishlab chiqarilgan jami mahsulot miqdorini (Q) jami kishi-soatlarga (T) bo'lish kerak:

$$V = \frac{Q}{T}$$

2. Bir kishi-kuni hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (V). Buni hisoblash uchun ishlab chiqarilgan mahsulotning jami miqdorini (Q) kishi-kunlari (T) jamiga bo'lish kerak:

$$V = \frac{Q}{T}$$

3. Bir ishlovchi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (V). Buni hisoblash uchun ishlab chiqarilgan mahsulotning jami miqdorini (Q) ishlovchilarning o'rtacha soniga (T) bo'lish kerak:

$$V = \frac{Q}{T}$$

Mehnat unumdorligining bilvosita ko'rsatkichi bo'lib, bir birlik mahsulotni yetishtirish uchun sarf bo'lgan vaqt (t) miqdori (kishi-soat, kishi-kuni) hisoblanadi.

Bu ko'rsatkichlarni aniqlash uchun jami kishi-soatni, jami kishi-kunini jami mahsulot miqdoriga bo'lish kerak:

$$t = \frac{T}{Q}$$

Mahsulot birligi uchun qancha vaqt kam sarflansa, mehnat unumdorligi shuncha yuqori bo'ladi. Bu ko'rsatkich mehnat unumdorligini bevosita ko'rsatkichini aksidir.

Mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishiga omillarning ta'sir etish xususiyatini hisobga olib, tahlilda omillarning bevosita ishtirokida yuzaga keladigan usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki qaysi usulda aniqlanmasin, mehnat unumdorligi darajasi o'zgarmaydi, bir darajada qoladi, ammo ikkinchi usulda mehnat unumdorligi darajasini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar ko'rinib turadi, birinchi usulda ularni ko'rish mumkin emas.

Demak, mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini jami ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan jami mehnat sarfi ko'rsatkichlaridan foydalanib aniqlash o'rniga, bir birlik xizmat hisobiga to'g'ri keladigan mehnat sarfi ko'rsatkichlaridan foydalanib aniqlash to'g'ri bo'ladi, chunki ushbu ko'rsatkichlar o'z navbatida mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi bevosita omillar bo'lib hisoblanadi.

Hisobot yilidagi mehnat unumdorligi darajasini bazis yilidagi uning (yoki rejadagi) darajasiga solishtirib, oshgan yoki kamayganligi aniqlanadi:

$$(X_1 : T_1) - (X_0 : T_0) = \pm \Delta_{TX}$$

bunda, T_0, T_1 – bazis va hisobot yillarida bir birlik ishlab chiqarilgan mahsulot hisobiga sarf bo'lgan vaqt (kishi-soat, kishi-kuni hisobida);

H_0, H_1 – bazis va hisobot yillaridagi ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi.

Δ_{TX} – ikki omil ta'sirida yuzaga kelgan mehnat unumdorligi bevosita ko'rsatkichining o'zgarishini bildiradi.

Ushbu o'zgarish ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

1. Bir birlik mahsulot hisobiga sarf bo'lgan vaqtning o'zgarishi hisobiga (T_1-T_0);

2. Jami mahsulot hajmining o'zgarishi hisobiga (H_1-X_0).

Ushbu omillarning mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalandik.

Omillarning ta'sirini aniqlashdan oldin «Shartli mehnat unumdorligi» ko'rsatkichini aniqlash zarur. «Shartli mehnat unumdorligi» ko'rsatkichini aniqlash uchun bazis yilidagi mahsulot hajmini (H_0) hisobot yilida bir birlik mahsulot ishlab chiqarishga sarf bo'lgan vaqt miqdoriga (T_1) bo'lish kerak:

$$V_{sh} = X_0 : T_1$$

Endi, mehnat unumdorligining o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqlash mumkin.

Mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishiga miqdoriy omilning, ya'ni birlik mahsulot hisobiga sarf bo'lgan vaqt (kishi-soat, kishi-kuni)ning o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun, shartli mehnat unumdorligi darajasidan bazis yilidagi mehnat unumdorligi darajasini chegirib tashlash kerak:

$$(X_0 : T_1) - (X_0 : T_0) = \pm \Delta_T$$

Mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishiga sifatiy omilning, ya'ni mahsulot hajmi darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi mehnat unumdorligi ko'rsatkichidan shartli mehnat unumdorligi ko'rsatkichini chegirib tashlash kerak:

$$(X_1 : T_1) - (X_0 : T_1) = \pm \Delta_x$$

Shu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi har doim mehnat unumdorligi darajasining umumiy o'zgarishiga teng kelishi shart.

Tahlilning mazmuni va usullaridan foydalanib, «Sardor» fermer xo'jaligida mehnat unumdorligining bevosita ko'rsatkichi tahlilini 4.2.1-jadvalda aks ettirdik.

4.2.1 -jadval

«Sardor» fermer xo'jaligida mehnat unumdorligi bevosita ko'rsatkichi dinamikasi o'zgarishining omilli tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	2012 yil	2013 yildagi bir birlik mahsulotga mehnat sarfi va 2012 yil mahsulot hajmi bo'yicha	2013 yil	O'zgarishi (+/-)
1.	Bir sentner don ishlab chiqarishga mehnat sarfi, kishi-soat.	4,5	4,3	4,3	-0,2
2.	Jami ishlab chiqarilgan don miqdori, sentner	4265	4265	4540	+ 275
3.	1 kishi-soat hisobiga ishlab chiqarilgan don, sentner Shu jumladan o'zgarishi omillar hisobiga:	0,222	0,233	0,233	+ 0,011
	a) 1 sn don ishlab chiqarishga mehnat sarfi miqdorining o'zgarishi hisobiga	x	x	x	+ 0,008
	b) Jami ishlab chiqarilgan don miqdorining o'zgarishi hisobiga	x	x	x	+ 0,003

4.2.1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, «Sardor» fermer xo'jaligida 2013 yilda 2012 yilga nisbatan bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan kishi-soatlarni kamayishi va mahsulot hajmini oshishi hisobiga mehnat unumdorligi oshgan, ya'ni bir sentner don ishlab chiqarish uchun sarflangan kishi – soat miqdori 0,2 soatga kamaygan.

Mehnat unumdorligini fermer xo'jaligida bir soat ichida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 2013 yilda 2012 yilga nisbatan 0,011 sentnerga oshganini bildiradi. Amalga oshirilgan tahlil natijasida bir soat ichida ishlab chiqarilgan don miqdorining 0,008 sentnerga oshishi bir sentner don ishlab chiqarishga mehnat sarfi miqdorining o'zgarishi hisobiga, bir soat ichida ishlab chiqarilgan don miqdorining

0,003 sentnerga oshishi jami ishlab chiqarilgan don miqdorining o'zgarishi hisobiga oshgan.

Mehnat unumdorligi bevosita ko'rsatkichlarining 2 va 3 turlarining tahlili ham yuqorida keltirilgan usul bo'yicha amalga oshiriladi. Shuning uchun ularga to'xtalmadik.

Endi, mehnat unumdorligining bilvosita ko'rsatkichining tahliliga to'xtalamiz. Mehnat unumdorligining bilvosita ko'rsatkichiga ta'sir qiluvchi omillar bo'lib, uning bevosita ko'rsatkichining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar hisoblanadi. Ushbu omillarning mehnat unumdorligining o'zgarishiga ta'sirini aniqlashda «indeks» usulidan foydalanamiz. Omillarning ta'sirini aniqlaganga qadar mehnat sarfining quyidagi uchta bilvosita bog'lanish ko'rsatkichi hisoblab olinadi:

1. Bazis yilidagi mehnat sarfi ko'rsatkichi:

$$t_0 = T_0 : X_0$$

2. Shartli mehnat sarfi ko'rsatkichi. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun hisobot yilidagi bir birlik mahsulot hisobiga qilingan mehnat sarfi miqdorini (T_1) bazis yilidagi jami mahsulot miqdoriga (H_0) bo'lish kerak.

$$t_{III} = T_1 : X_0$$

3. Hisobot yilidagi mehnat sarfi ko'rsatkichi.

$$t_1 = T_1 : X_1$$

Shundan keyin mehnat unumdorligining bilvosita ko'rsatkichini omilli tahlil qilish mumkin. Bazis yilida mahsulot birligi uchun sarf bo'lgan mehnat vaqtini (kishi-soatni, kishi-kunini) hisobot yilidagi bir birlik mahsulot uchun sarf bo'lgan mehnat vaqtiga bo'lish orqali mehnat unumdorligini indeksi aniqlanadi, undan 1 koeffitsiyentni (100 foizni) chegirish orqali umumiy o'zgarishi aniqlanadi: buni quyidagi formula yordamida ifodalash mumkin:

$$\left(\frac{T_0}{X_0} : \frac{T_1}{X_1}\right) - 1 = \pm \Delta_{TX}$$

Shunday qilib, «Sardor» fermer xo'jaligida mehnat unumdorligi ko'rsatkichini tahlil qilib, fermer xo'jaligida keyingi yillarda mehnat unumdorligi oshayotganini aniqladik.

5. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

Hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha qo'yilgan asosiy maqsad - bu insonning jamiyat taraqqiyotidagi rolidir. Hayot faoliyat xavfsizligi - bu har qanday sharoitdagi inson faoliyatidir. Insonning hamma faol harakati, ya'ni mehnat jarayonida, dam olishda, uyda hamda sportdagi faoliyatini tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligida hayot faoliyati xavfsizligi o'z tarkibiga inson faoliyatining atrof-muhit bilan aloqasi, mehnat faoliyatidagi xavfsizligi va favqulodda vaziyatlardagi xavfsizligi bo'limlarini qamrab oladi. Hayot faoliyati xavfsizligi tamoyil va usullar asosida: baxtsiz hodisalar, qurbonlar va ular natijasida kelib chiqadigan zararlarni kamaytirish masalalarini keng miqyosda qo'yadigan va hal qiladigan vositadir. Hayot faoliyati xavfsizligi - bu har qanday ko'rinishdagi faoliyatga qo'llanishi mumkin bo'lgan xavfsizlikning nazariy asosidir.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2011 yil 8 fevraldagi «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olish uchun ta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalaridan foydalanishda mehnatni muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash haqida»gi buyrug'iga muvofiq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olish uchun ta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalaridan foydalanishda mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi. Mazkur Qoidalar o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi tashkilotlarga taalluqlidir.

Ta'lim muassasalari talabalari mehnatidan foydalanish jarayonida mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa normativ hujjatlarga rioya etilishi ustidan nazorat maxsus vakolat berilgan davlat organlari, mehnat jamoalari va kasaba uyushmasi tashkilotlari tomonidan saylangan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakillar tomonidan amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olishda band bo'lgan ta'lim muassasalari talabalariga ish turlari bo'yicha belgilangan tartibda

mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riq berilishi kerak. Bunda ular oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

Ta'lim muassasalari talabalari mehnatidan foydalanish taqiqlanadigan ishlar:

- O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning mehnati qo'llanishi taqiqlanadigan noqulay mehnat sharoitlari ishlari ro'yxatiga muvofiq o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar zararli va noqulay mehnat sharoiti mavjud ishlarga qabul qilinmasligi lozim.

- O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar ko'tarishlari va tashishlari mumkin bo'lgan og'ir yuk normalarining chegarasini belgilash to'g'risidagi nizomga muvofiq o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning belgilab qo'yilgan normadan ortiq og'ir yuk ko'tarishlari va tashishlariga yo'l qo'yilmaydi.

- Ayollar mehnatidan foydalanish to'liq yoki qisman taqiqlanadigan mehnat sharoiti noqulay bo'lgan ishlar ro'yxatiga muvofiq ayollar zararli va noqulay mehnat sharoitiga ega bo'lgan ishlarga jalb qilinmaydi.

- O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 77-bandiga muvofiq ishga qabul qilishga o'n olti yoshdan yo'l qo'yiladi. Yoshlarni mehnatga tayyorlash uchun umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarining o'quvchilarini ularning sog'lig'iga hamda ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishni o'qishdan bo'sh vaqtda bajarishi uchun — ular o'n besh yoshga to'lganidan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladi.

Mehnat va dam olishga quyidagi talablar qo'yilgan: Tashkilotlarda talabalarining ish vaqti, dam olish vaqti, shuningdek qisqartirilgan ish vaqti qonun hujjatlari talablari asosida tashkilotlarning ichki mehnat qoidalari asosida belgilanadi. Ish vaqtining muddati o'n oltidan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlarga haftasiga o'ttiz olti soatdan, o'n beshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslar uchun esa haftasiga yigirma to'rt soatdan oshmaydigan qilib belgilanishi

lozim. Talabalarni ish vaqtidan tashqari hamda tungi ishlarga jalb qilish qat'iyan taqiqlanadi.

Talabalarni dala ishlariga olib borish hamda olib kelishda xavfsizlik talablari: Har bir transport vositasiga joylashtiriladigan o'quvchi va talabalar soni transport vositasining texnik holatidan kelib chiqqan holda rahbariyat tomonidan belgilanishi hamda har bir transport vositasidagi talabalar ro'yxatga olinishi lozim. Har bir transport vositasidagi talabalarga alohida rahbar tayinlanadi. Rahbar ularni nazorat qilib borishi lozim. Bunda talabalarni tashish uchun mo'ljallangan transport vositalaridan, ularning yuklarini olib borishda esa, yuk tashishga mo'ljallangan transport vositasidan foydalanish shart. Transport vositasida talabalarning transport vositasi oynasi hamda boshqa joylaridan qo'l, bosh va boshqa a'zolarini chiqarishlari taqiqlanadi.

Talabalarni vaqtincha yashab turish joylaridan dalaga olib chiqish hamda olib kelishga qo'yiladigan xavfsizlik talablari: Talabalarni dalaga olib chiqish va olib kelishdan oldin rahbar yo'qlama qilishi va ularga bajariladigan ish turlari bo'yicha to'liq tushuntirish, yo'l-yo'riqlar berishi lozim. Talabalar orasida kasal yoki vaqtincha ish qobiliyatini yo'qotganlar tibbiyot xodimi nazoratidan o'tadi va ularning sog'liklari to'la tiklanguncha dam olish joylarida qoldiriladi. Dalaga chiqadigan talabalar ishning turiga hamda iqlim sharoitiga mos ust-bosh kiygan bo'lishi lozim. Ish olib boriladigan dala yashash joyidan 3 km masofadan uzoqda joylashgan bo'lsa, maxsus transport vositasi ajratilishi kerak. Ish joylariga olib borish va qaytarib kelish faqat kunning yorug' paytida amalga oshirilib, talabalar piyoda harakatlanganlarida yo'ldagi transport vositasining qatnoviga xalaqit bermaslik maqsadida saf bo'lib yurishlari lozim. Saf bo'lib harakatlanishda harakat xavfsizligini ta'minlash va boshqarish maqsadida safning boshida hamda oxirida qizil bayroqchali boshqaruvchilar qo'yilishi lozim. Ish joyiga yetib kelgandan so'ng talabalar ro'yxat bo'yicha ish joylariga taqsimlanishi lozim.

Dala ishlarini bajarishda xavfsizlik talablari: Talabalar dala ishlarini bajarishdan oldin belgilagan tartibda mavsumiy kiyim-bosh, soz ish qurollari bilan

ta'minlanishlari lozim. Dala ishlariga jalb qilingan talabalar hududning rahbari ruxsati bilan uning ko'rsatmasiga asosan ish boshlashlari lozim. Talabalar dala ishlarini bajarayotgan vaqtida bir-birlaridan kamida 2 m masofada joylashishlari lozim. Talabalar kunning yorug' vaqtida ishlashlari lozim.

Qishloq xo'jaligida mehnat sharoitlarining yaxshilanishi ijtimoiy natijalarga, ya'ni mehnatkashlarning sog'lig'ini yaxshilash, o'z ishidan mamnunlik darajasini oshirish, mehnat intizomini mustahkamlash, mehnat unumdorligini va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kattaqo'rg'on tumani fermer xo'jaliklarida mehnatga haq to'lash hisobi va mehnat unumdorligi tahlilini takomillashtirish borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari quyidagi xulosalar qilishga imkon berdi:

1.Kattaqo'rg'on tumani fermer xo'jaliklarida miqiyosida olib ko'radigan bo'lsak, xo'jalik subyektining asosiy maqsadi ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni, uning yuksak natijalarga erishishiga yo'naltirilgan bo'ladi. Kattaqo'rg'on tumani fermer xo'jaliklarida oshirilayotgan islohatlar tarmoqning raqobatbardoshligini yanada oshirish, moliyaviy xolat barkarorligini ta'minlash maqsadida mehnat va texnologik intizomni kuchaytirish uchun har bir xodimning samarali mehnatini talab etadi.

2.Kattaqo'rg'on tumani fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi esa mehnat haqining amaliyotda qilingan mehnat xarajatlari mikdori va sifatiga, amaldagi mehnat haqi shakli va tizimiga ko'ra va mehnat haqidan ajratmalar va ushlanmalarni to'g'ri hisoblanishini, mehnat intizomini, xodimlarning ish vaqtidan foydalanishini, ishlab chikarish normalarning bajarilishini, kelgusida mehnat unumdorligini oshirish maqsadida zahiralarini aniqlashda, mehnat haqi fondi xarajatlarining nazoratini taminlash, O'zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari fondlarga va ijtimoiy sug'urta ajratmalarini to'g'ri hisoblanishini va yo'nalishlar bo'yicha taqsimlanishini taminlaydi.

3.Mehnat haqini oshishi bevosita ishlab chiqarish samaradorligini oshishiga ta'sir qiladi. Mehnat haqini oshishi xodimlarda mehnatga bo'lgan munosabatni ijobiy tomonga o'zgarishiga olib kelib, o'z ishiga mas'uliyat bilan yondoshadi, ish vaqtidan unumli foydalanadi, mehnat unumdorligi oshadi, nitijada korxonada ishlab chiqarish samaradorligi oshadi.

Mehnatga haq to'lash hisobi va mehnat unumdorligi tahlilini takomillashtirish bo'yicha quyidagilarni **taklif qilamiz**:

1. Kattaqo'rg'on tumani fermer xo'jaliklarida mehnat haqining dastlabki hisobi tahlil qilinganda, xodimlarning mehnati va bajargan ishlarni hisobga olish va ularga

mehnat haqi haqi hisoblash hamda to'lashda turli xil buxgalteriya hujjatlari rasmiylashtiriladi. Ushbu hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonida yozuvlarni olib borish qo'lda amalga oshiriladi, ya'ni hujjatlarni to'ldirish va qayta ishlash jarayonida hisoblash texnikasidan foydalanilmaydi. Hozirgi kunda buxgalteriya hisobini, ayniqsa mehnat haqi hisobi bo'yicha bir qancha dasturlar mavjud bo'lib, ulardan foydalanishni taklif qilamiz.

2. Mehnat haqi bilan bog'liq ajratmalar va mehnat haqidan ushlanmalar hisobini Kattaqo'rg'on tumani fermer xo'jaliklarida olib borilishini tahlili shuni ko'rsatadiki, korxonada yuqorida qayd etilganlarning hisobi korxonada to'g'ri yo'lga qo'yilgan. Lekin, ushbu hisob-kitoblarni olib borilishi faqat moliyaviy hisob tamoyillari asosida olib borilib, korxonada ular bo'yicha ma'lumotlar alohida yuritilib, korxona boshqaruvchilari uchun alohida hisobot tuzilmaydi. Shuning uchun korxonada mehnat haqi fondini sarflarini doimiy nazorati tahminlash, mehnat haqini oshirib borish uchun ichki imkoniyatlarni aniqlash maqsadida boshqaruv hisobining tamoyillarga mos keladigan hisobot tuzishni taklif qilamiz.

3. Tumandagi "Sardor" fermer xo'jaligida 2013 yilda 2012 yilga nisbatan tovar mahsuloti hajmining o'sish sur'atini hisobga olmagan holda ish haqi fondi bo'yicha 20353.1 ming so'm mutlaq ortiqcha xarajatga yo'l qo'yilgan. Tovlar mahsuloti hajmining o'sish sur'atini (12.1 foiz) hisobiga olganda esa, ortiqcha xarajat 9564.5 ming so'mni tashkil etdi. Bu esa korxonaning mehnat resurslaridan oqilona foydalanmaganligidan dalolat beradi. Shuning uchun, fermer xo'jaligida mehnat resurslaridan samarali foydalanish tavsiya etildi.

4. «Sardor» fermer xo'jaligida 2011-2013 yillarda mehnat haqi fondini 43313.6 ming so'mi fermer xo'jaligida ishlovchilar sonini oshishi hisobiga oshgan bo'lsa, 12576.4 ming so'mi o'rtacha bir xodimga hisoblangan mehnat haqining oshishi hisobiga oshgan. «Sardor» fermer xo'jaligida mehnat haqi va mehnat haqi fondini tahlil qilib, quyidagilarni taklif qilamiz:

- fermer xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va uni bajarilishini ta'minlash lozim. Bu fermer xo'jaligida mehnat

haqini oshishini mehnat unumdorligini oshishiga mutanosibligini ta'minlashiga olib keladi;

- fermer xo'jaligida mehnat haqini tashkil etish va xodimlarga mehnat haqi hisoblash hamda ularga oylik maoshlari stavkasini belgilashda, xodimlarning fermer xo'jaligida ishlab chiqarishga qo'shayotgan hissasini, malakasini hisobga olish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. 30.04.1998.
3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 21.12.1995.
4. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Buxgalteriya hisobi to'g'risida. 30.08.1996.
5. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Fermer xo'jaligi to'g'risida (yangi tahrirda). 26.08.2004.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 22.10.2012. PF–4478.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Mahsulot (ishlar xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom. 05.02.1999. 54-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Vazirligining buyrug'i. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olish uchun ta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalaridan foydalanishda mehnatni muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash haqida. 08.02.2011. №7-B.
9. Prezident Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. // Xalq so'zi. 18.01.2014. -№13 (5913).
10. Prezident Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Bosh maqsadimiz — keng ko'lamli islohotlar va

modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. // Xalq so'zi, 19.01.2013. - №13 (5687).

11. Prezident Islom Karimovning 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. // Xalq so'zi, 20.01.2012. №14 (5404).

12. Alikulov A., Qurbonov I., Ibragimov U., Eshmuradov U. Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi. – Samarqand: N-Doba, 2009. – 248 b.

13. Alikulov A.I., Eshmuradov U.T. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahsulot tannarxi va uning korxonalar raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyati. /Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, I-qism. – Samarqand: N-Doba, 2013. - B. 137-140.

14. Abdug'aniyev A. Qishloq xo'jalik yerlaridan to'liq va samarali foydalanish istiqbollari. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2013. -№7. – B. 35-36.

15. Abduvohidov F., Sotivoldiyeva D. Mahsulotlar tannarxi va uning buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalalari. // Bozor, pul va kredit. – Toshkent, 2011. - №4. – B. 53-55.

16. Aralov X. Dehqon xo'jaliklarining mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2010. -№2. 27-28 b.

17. Gadoyev E.F. va boshq. Buxgalterlar uchun amaliy qo'llanma: II-jildlik. – T.: NORMA, 2010. – 424 b.

18. Do'smuratov R.D., Mengliqulov B.Yu. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2014. - 392 b.

19. Dehqonchilik madaniyati – fermerlar majburiyati (fermerlar uchun tavsiyalar). // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2013. -№6. –B. 10-13.

20. Ergashev R.X., Xamrayev S.N. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti. – T.: Yangi asr avlodi, 2012. – 332 b.

21. Ergashev R.X. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti.– T.: EXTREMUM PRESS, 2010. – 416 b.
22. Ismoilov A., Murtazayev O. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. –T.: Moliya, 2005. – 435 b.
23. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Buxgalteriya hisobi. – T.: Sharq, 2004. – 591 b.
24. Niyozov S. Boshqaruv hisobida xarajatlar klassifikatsiyasi. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2012. -№1. – B. 43-44.
25. Pardayev M.Q., Xasanov B.A. va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. – T.: Cho'lpon, 2012. – 440 b.
26. Samatov G'.A., Rustamova I.B., Sheripbayeva U.A. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti va menejmenti. – T.: Cho'lpon, 2012. – 320 b.
27. Sotivoldiyev A. va boshqalar. Финансовый и управленческий учет. – T.: Iqtisod-moliya, 2012.
28. Tursunov U., Yuldashev B. Fermer xo'jaliklarida xarajatlar hisobi. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2014. -№4. –B. 35.
29. Umurzoqov O'.P., Toshboyev A.J., Toshboyev A.A. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008. – 276 b.
30. Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi.– T.: Cho'lpon, 2013. – 312 b.
31. Qudratov T., Fayziyeva N. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. – T.: VORIS, 2012. – 256 b.
32. Qudratov T. Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining tahlili. – Samarqand: N-Doba, 2010. – 191 b.
33. Qosimov M. Fermer xo'jaliklarining texnologik barqarorligini ta'minlash. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2013. -№12. –B. 17.
34. O'zbekiston Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi matbuot xizmati. Islohotlar taraqqiyot va rivojlanishga xizmat qilmoqda. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2014. -№2. –B. 1-2.

35. Сменов В.М. Экономика предприятия. –Санкт Петербург: Питер, 2010. - 416 с.

36. Samarqand viloyat Statistikasi boshqarmasi hisobot ma'lumotlari 2011, 2012, 2013 yillar.

37. Samarqand viloyat Kattaqo'rg'on tumani Pasporti, Kattaqo'rg'on tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi va statistika bo'limi hisobot ma'lumotlari 2011, 2012, 2013 yillar.

38. Samarqand viloyat Kattaqo'rg'on tuman «Sardor» fermer xo'jaligi hisobot ma'lumotlari 2011, 2012, 2013 yillar «1-fermer shakli».

39. Internet saytlari:

39.1. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi portali

39.2. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti

39.3. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasining hukumat portali

39.4. www.agro.uz - O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi portali.

39.5. www.agriculture.uz - O'zbekiston agroaxborot tizimi portali

39.6. www.samarkand.uz – Samarqand viloyati rasmiy sayti